

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

BOBOQULOVA SEVARA

**O'ZBEK MENTALITETINING O'ZIGA XOS IJTIMOIIY PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

«5310200-Psixologiya» yo`nalishi bo`yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o`qituvchi. N.Ishonqulova

Bitiruv malakaviy ishi «Psixologiya» kafedrasining 2014 yil 30-maydagi
yig`ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10
)

Kafedra mudiri:

p.f.n. dots. A. I. Saidov

BMI YADAKning 2014 yil _____iyundagi majlisida muhokama qilindi
va _____ ballga baholandi (bayonnoma №____)

YADAK raisi: _____

A`zolari: _____

Samarqand-2014

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 15 nafari.

Majlis raisi: p.f.n. dots.A. Saidov

Kotib: V. Axrorov

KUN TARTIBI

«Psixologiya» kafedrasida 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri p.f.n. dots A.I.Saidov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi

2013-2014 o'quv yilida Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Boboqulova Sevaraning «O'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi.

Ilmiy rahbari: o'qituvchi N.Ishonqulova ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi bor.

Shuning uchun so'zni Boboqulova Sevaraga bersak. U malakaviy bitiruv ishininng mazmuni bilan tanishtirdi.

Boboqulova Sevara malakaviy bitiruv ishining mazmuni, mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amalga oshirgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga o'qituvchilar dots. Saloxutdinova M o'qituvchilar Ishonqulova N va Oblaqulov J, Qodirov O savollar berishdi. Savollarga Boboqulova Sevara ijobiy javob berdi.

Boboqulova Sevaraning chiqishi, savol javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr mulohazalar bildirildi.

QAROR QILINDI

1. Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Boboqulova Sevaraning «O'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Boboqulova Sevaraning ushbu malakaviy bitiruv ishiga Urganch davlat universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasini mudiri p.f.n. dots: Sh.Ismailova taqrizchi deb belgilansin.

«Psixologiya» kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Majlis raisi: _____ **p.f.n. A.Saidov**

Kotib: _____ **V. Axrorov**

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Boboqulova Sevaraning «O'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZASI

O'z tarixini bilmagan, o'z milliy qadriyatlarini bilmagan insonni kelajagi ham bo'lmaydi. Ma'naviyat yo'q joyda taraqqiyot ham, baxt-saodat ham kelajak ham bo'lmaydi. Ma'lumki, har bir jamiyatda kelajak taqdiri navqiron avlodlar qo'lida bo'lganidek, har bir xalqning ma'naviy va madaniy kamolot darajasi, eng avvalo, yoshlar tarbiyasidagi milliy mental xususitlarida ko'rinadi. Istiqbolini o'ylagan har qanday ma'naviyati va madaniyati qanday shakllanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Istiqloq tufayli odamlarning o'z taqdirini o'zlari erkin belgilash imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Shu yo'nalishda odamlarning individual ravishda kamolotga, farovonlikka, to'kinlikka intilish xususiyatlari ham ravshan namoyon bo'la boshladi.

Ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, ma'rifatli, madaniyatli o'zini mental xususitlarni bilgan kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, birovlariga himmat-muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi. Yuksak madaniyat sohibi bo'lgan insonlar boshiga mushkul ish tushgan kishining mushkulini oson qiladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetim-yesirlarni parvarish qiladi. Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor to'yg'usi, oriyat kabi mental xususiyatlar kuchli bo'ladi. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan kishilar o'z millati, elulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi. Vataniga xavf tug'lsa, uning himoyasi yo'lida

mol-dunyasini, jon-u jahonni ayamaydi, fidoiyluk va qahramonlik namunalarini ko'rsatadi.

Ma'naviy barkamol bo'lgan odamlar birovlar orqasidan ginaxonlik qilmaydi, gap tashimaydi, fisq-u fasad, bo'htonga nisbatan murosasiz bo'ladi, mahalliychilikka yo'l qo'ymaydi, guruhbozlikka, millat ajratishlarga qarshi astoydil kurashadi, milliy birdamlik, milliy hamkorlik va milliy hamjihatlik, o'zaro do'stlikni qaror toptirish va mustahkamlash yo'lida tinmay harakat qiladi.

Boboqulova Sevara tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, besh paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi: O'zbek mentalitetining o'ziga xos psixologik xususiyatlarni adabiyotlarda o'rganilishi deb nomlangan bo'lib o'zbek mentalitetida jamoaviylik va individuallik xususiyatlarini yoritilishi va fuqorolik jamiyati va o'zbek mentaliteti uyg'unligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari nazariy qismida yaxshi yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi bobida O'zbek mentalitetining o'ziga xos psixologik xususiyatlarni amaliy o'rganishdan olingan empirik tahlillar keltirib o'tilgan bo'lib bunda shaxs yo'nalganligini diagnostikasi va uning tahlili shuningdek shaxsning qadriyatlartizimiga munosabatini ijtimoiy psixologik o'rganish bo'yicha olingan tadqiqotlar o'z aksini topgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib Boboqulova Sevaraning mazkur malakaviy bitiruv ishini ijobiy baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

SamDU

psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

N.Ishonqulova

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Boboqulova Sevaraning «O'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari» mavzusiga

TAQRIZ

Umuminsoniy qadriyatlar barcha xalqlar hayot tarzi asosida yaratilgan va umumbashariy xarakterga ega bo'lgan qadriyatlardir. O'zbekistonning demokratik jamiyat qurish harakatlari: erkinlik, tenglik, ijtimoiy haqiqat, ijtimoiy adolat, qonun ustivorligi singari umumbashariy tamoyillarga bo'lgan extiyojini yanada oshiradi.

Milliy qadriyatlarimiz orasida milliy an'analar alohida o'rin tutadi. Milliy an'analarimizning kuch-qudrati shundaki, u diniy odob-axloq qoidalari bilan chambarchas bog'lanib, jamoatchilik asosida odamlar xatti-harakatlarini baholab boradi. Adolatparvarlik, saxovatpeshalik, iymon, diyonat, nafs balosiga qarshi kurashish singari qadriyatlar, rivoyat, hikmatlar qadimiy sharqda ilk bor ilohiy tarzda ilgari surilgan. Islom madaniyatining asoschilari, peshvolari Axmad Yassaviy, At-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Baxouddin Nakshband va ularning yuzlab izdoshlari xalqimizning ajoyib qadriyatlarini rivojlantirib borganlar.

Oллоh oldida shohu-gadoning tengligi, saxiylik, halollik, insof va adolat, iymon va diyonat kabi tushunchalarga muqaddaslik mazmunini berganlar ham shu buyuk insonlardir.

Milliy qadriyatlarning ahamiyatli tomoni shundaki, u odamlarni yuksak qadrlarga da'vat etadi, unga nisbatan ishonch uyg'otadi, har bir fuqaroning oila, jamiyat va mamlakat oldidagi o'zlarining mas'uliyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Boboqulova Sevara tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki besh, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi: O'zbek mentalitetining o'ziga xos psixologik xususiyatlarni adabiyotlarda o'rganilishi deb nomlangan bo'lib o'zbek mentalitetida jamoaviylik va individuallik xususiyatlarini yoritilishi va fuqorolik

jamiyati va o'zbek mentaliteti uyg'unligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari nazariy qismida yaxshi yoritib berilgan.

Ishning ikkinchi bobida O'zbek mentalitetining o'ziga xos psixologik xususiyatlarni amaliy o'rganishdan olingan empirik tahlillar keltirib o'tilgan bo'lib bunda shaxs yo'nalganligini diagnostikasi va uning tahlili shuningdek shaxsning qadriyatlartizimiga munosabatini ijtimoiy psixologik o'rganish bo'yicha olingan tadqiqotlar o'z aksini topgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Umuman olganda mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzuga mos ravishda mazmunli qilib yoritilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Urganch davlat universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrası

mudiri p.f.n.

dots: Sh.Ismailova

MUNDARIJA

KIRISH.....

I- BOB. O'ZBEK MENTALITETINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI.

1.1.O'zbek mentalitetida jamoaviylik va individuallik xususiyatlari.....

1.2.O'zbek mentalitetigi o'zgarishlar: kecha va bugun.

1.3.Fuqarolik jamiyati va o'zbek mentaliteti uyg'unligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari.....

II-BOB. O'ZBEK MENTALITETINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI AMALIY O'RGANISHDAN OLINGAN EMPIRIK TAHLILLAR.

2.1. Shaxs yo'nalganligi diagnostikasi va uning tahlili.....

2.2. Shaxsning qadriyatlar tizimiga munosabatini ijtimoiy psixologik o'rganish.....

XULOSA.....

ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Xalqning va millatning jamiki orzu-armonlarini o'zida mujassamlashtirgan, yurak-yuragidan joy olgan, e'tiqodiga aylangan va olg'a chorlagan g'oya - milliy g'oyaga aylanadi.

Ma'naviyat shaxsda olamni bilish, o'zini o'zi anglash, hayot ma'nosini tushunish va turmushda o'z o'rnini topish tariqasida namoyon bo'ladi. Shaxs hayot muammolari yuzasidan qay yo'sinda mulohaza yuritgan bo'lsa, ularning yechimini topishga uzluksiz ravishda intilsa, xuddi shu mezonlar bilan insonning ma'naviyati o'lchanadi.

Umumbashariy manfaatdan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan insonning bilish faoliyati ijtimoiy ma'qullanish, quvvatlash tufayli ma'naviyatning muhim omiliga aylanadi. Hayot kechirish sharoitining o'zgarishiga binoan ma'naviyatning yangi mezonlari, uni o'zlashtirishning oqilona shakllari insoniyat tomonidan rivojlantiriladi.

Ma'naviyatning ma'rifiy jabhalarini shaxsiyatparast kishilar ruhiyatidagi illatlarni batamom yo'qotishga yo'naltirish ham jismonan, ham ruhan sog'lom insonlarni tarbiyalashga keng shart-sharoitlar yaratadi.

Ma'naviyatni jamiyatimizning har bir a'zosi tushunib yetishi uchun turli vositalar yordami bilan uning barcha qirralarini yoritib borish mentalitetning o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Umuman, muammo bo'yicha turli soha vakillari, jumladan faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (A.G.Asmolov, Sh.A.Nodirashvili, T.Maslay, G.M.Andreyeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Qon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, K.K.Platonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, va boshqalar) o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot obyektiga aylantirganlar va ma'lum darajada munosabat mezonini talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev,

Sh.R.Barotov A.M.Jabborovlar, M.Bekmurodovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda qadryatlar yo'nalishi ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

Ishning maqsadi: Samarqand udumlari va ularni o'rganish orqali shaxs xususiyatlarini tadqiq qilish va uning shaxs hayotidagi mental ijtimoiy – psixologik xususiyatini ochib berish.

Ishning ilmiy farazi: Milliy urf – odat va an'analar shaxsning mental ijtimoiy – psixologik muhitida o'ziga xos bo'lgan milliy etnopsixologik xususiyatni shakllantirishi mumkin.

1. Qadryatlar shaxs taraqqiyotida va uning shaxslararo munosabatida alohida bosqich bo'lishi mumkin.
2. Mentalitetning shaxs shakllanishidagi o'rni turli urf odat, va qadryatlarining namoyon bo'lishiga bog'liq bo'lishi mumkinligi.

Ishning vazifalari: Milliy urf – odat va an'analardan shaxs hayotida ijobiy xususiyatini shakllantirish.

Shaxs ahloqiy sifatlarini shakllantirishda qadryalarning o'rni katta ekanligini keng ommaga havola etish.

Ishning nazariy ahamiyati va metodologik asoslari: Ilg'or ilmiy psixologiya fanida shaxs ijtimoiy taraqqiyoti bo'yicha yaratilgan umumiy qonuniyatlar, konsepsiyalar, shuningdek, shaxsga individual yondashuv prinsiplari (B.M.Teplov, V.S.Merlin, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, E.G'. G'oziyev va boshqalar). Shaxs va ijtimoiy ustanovka prinsiplari (D.Uznadze, Sh.A.Nodirashvili, A.G.Asmolov, G.Ollport, G.Rozenberg va boshqalar), shaxs va munosabat mutanosibligi prinsiplari (V.N.Myasishev, T.Liri, S.L.Rubinshteyn, B.S.Merlin va boshqalar), buyuk ajdodlarimizning ta'lim- tarbiya to'g'risidagi ta'limotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqalar.

Ishning obyeksi va predmeti: Ishning obyeksi – kishilar jamoasi, **predmeti** – o'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarini yoritishda urf – odat va qadryatlarning o'rnini keng ommaga tushuntirish.

Ishning amaliy ahamiyati: Ishning natijalaridan sinf rahbarlari, maktab psixologlari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab direktori o'rinbosarlari va ota-onalar va keng omma foydalanishi mumkin.

Ishning metodlari:

1. Kuzatish, individual suhbatlar, faoliyatning mahsuldorligini tekshirish.
2. Kontent-tahlillar.
3. “Shaxs yo'nalganligi” (V.Smekal va M.Kuchera).
4. “Qadriyatlar yo'nalishlari” (I.G.Senin).

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar: XXI asrning buyuk o'zgarishlar davri bo'lishiga shubha yo'q. Bu o'zgarishlar eng avvalo inson tafakkurida, uning fikrlash tarzida ro'y berishi muharrar. Tabiiyki, bu holat shaxs ma'naviyatiga va u orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishining hayotiy zarurligi va dolzarbligi haqida gapirar ekanlar, «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur» deb alohida ta'kidlaydilar. Bu vazifalar birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo'lish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo'lib o'z yurti va Xalqiga sidqidildan xizmat qilish ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli yuqori malakali kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishni taqozo etadi. Mustaqillik tafakkur qilishning dastlabki mevalaridan bo'lib, u jamiyatning yangilanishi davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik toblanishini anglashga yordam beradi. Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, shaxs kamoloti

uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, uning o'zligini anglab borishi va o'z ustida Mustaqil ishlagan tarzda ravnaqi va Vatan taraqqiyoti uchun fidokorona mehnat qilish uchun butun iqtidori, aqli va shuo'rini safarbar etishga undaydi.

I - BOB. O'ZBEK MENTALITETINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI.

1.1.O'zbek mentalitetida jamoaviylik va individuallik nisbati.

Ma'lumki, o'zbek Xalqi asrlar mobaynida jamoa bo'lib istiqomat qilib kelgan va oilasi, o'z urug'i, el-elati, vatani, kasbi-koriga sodiqlik asosiy tamaltoshi vazifasini o'tagan. Xalqimizning jamoaviy tabiati uning nafaqat o'troq turmush tarzida yashovchi qismida, balki chorvachilik bilan band guruhlari uchun ham xos xususiyat bo'lgan. XIX asr yozma manbalarida qayd etilishicha, Xorazmda chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan, rus bosqinchilariga bo'yin egmagan mag'rur yovmit urug'i, Surxondaryoda Qo'ng'iroq urug'i, Qashqadaryoda Kuchchi urug'lari chorva ko'chishi bilan bog'liq ravishda hudud almashib hayot kechirishlariga qaramay, o'z urug'lari bilan birga yashab chorva ko'chishiga monand ko'chib yursa-da, jamoaviy turmush tarziga o'ziga xos tarzda amal qilib kelganlar.

Jamoaviylik o'zbek mentalitetida kasb-korga iqtisodiy omillarga bog'liqlikdan ham ko'ra etnik va ruhiy - ma'naviy omillarga ko'proq bog'liqlik bilan izohlanadi.

Jamoaviylik hodisasining ma'naviy-ruhiy, etnik omillarga ko'proq bog'liqligi shaxs tabiatida doimiy ravishda ikki ahloqiy kuch o'rtasida, ya'ni urug'-jamoqa oldidagi burch bilan o'z-o'ziga mas'ullik tuyg'ulari o'rtasidagi nisbat me'yoriga ustuvor ahamiyat berib kelinishi bilan izohlanadi. Ana shu ikki ahloqiy omillar baxsida biror kimsa jamoa oldidagi burchini bajarmay qolgudek bo'lsa, shaxs jamoaviy hukm ra'yiga aslo qarshi bormagan, o'ziga loyiq jazoni mo'min tabiatlik bilan qarshi ola bilgan. Bilaks shaxs o'z-o'ziga mas'ullikdan iborat ma'naviy omilni buzib qo'ygudek bo'lsa, u aslo o'zini kechira olmagan. Aksariyat hollarda o'z joniga qasd qilgan yoxud g'animlarga qarshi janglarda shahid bo'lishga intilgan. O'zbek mentalitetida o'z-o'ziga mas'ullik tuyg'usi Xalqimiz tabiatida sadoqat, uyat, or-nomus, iffat, hayo, ibo, vijdon, oriyat, nafsoniyat, izzat-nafs, halollik, to'g'ri so'zlik singari ajoyib fazilatlar rivoj topishiga yo'l bergan.

Ma'lumki, Xalq tabiati, mentaliteti tizimiga o'zaro nizolar, urushlar, bosqinlar, ocharchilik, o'zga Xalqlarning siyosiy-mafkuraviy istilolari jiddiy talafot yetkazadi. Xalqimiz tarixida eng tushkun davr deb baholangan XVI va XIX asrlarda¹ milliy mentalitetimizning o'zak ildizlariga bolta urildi. O'zbek xarakterida subutsizlik, yolg'onchilik, tilyog'lamalik, mutelik, qo'rqqoqlik singari illatlar ildiz ota boshladi. Xalqimiz ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy mo'ljallarini yo'qotib, odamlarda haqiqiy xavf bilan vahima, gina bilan adovat, do'st bilan dushman o'rtasidagi farqni ilg'ash va anglash salohiyatlari sezilarli darajada kamaydi. Ichki dushmanlar ginani adovatga, xushyorlikni vahimaga, do'stni dushmanga aylantirishga erisha boshladilar. Tashqi dushmanlar esa, bir qarashda ishonib bo'lmaydigan darajada oz kuch, ya'ni bor yug'ini bir necha ming askar bilan bugun Markaziy Osiyoni bosib ola boshladilar. Agar davrlar to'qnashuvi xayolan amalga oshirilsa, yosh avlod oldida XIX asrda yashagan ajdodlarimiz qiyin ma'naviy noqulaylik holatlarida qolgan bo'lur edilar. Qiyoslash uchun misollar: Muhammad Xorazmshoh qo'shinlari 700-800 ming askardan iborat bo'lib, Chingizxon 200 ming kishilik lashkari bilan mamalakatimizni zabt etgan. XVIII asrda eronlik Nodirshoh; 30 ming lashkari bilan yurtimizni zabt etgan. XIX asrda yurtimizga bostirib kelgan rus qo'shinlari soni ham bir necha ming kishidan iborat bo'lgani holda birgina Samarqand amirligining 40 ming, Qo'qon xonining 30 ming askarlari bo'lgan. Ajdodlarimiz ma'naviyatida birlik, haqiqiy fidoiylik, vatanparvarlik, vatanga chin muxabbat sustligi bois, shuncha qo'shin, imkoniyatlarga qaramay, dushmanlarga arzirli qarshilik ko'rsata olmaganlar. Dushman ichki parokandaligimiz, tarqoqligimiz sababli buyuk shaharlarimiz, muazzam qal'a, qo'rg'onlarimizni birin-ketin, bamaylixotir zabt etishga erishdilar.

Yurtni egallagan g'animlar esa birinchi galda Xalq ruhini sindirish, mentalitetini o'zgartirish borasida ish olib bordilar. Ruhini sindirish esa uning e'tiqodini, maslagi, mafkurasini o'zgartirishdan boshlangan. Arablar diniy asoslarimizni o'zgartirib milliy mentalitetimizga ta'sir ko'rsatgan bo'lsalar,

¹ Темурагузуқлари. Тошкент. Тошкент. «Шарк». 1996, 16—бет.

mug'o'llar istilosi urf -odatlar, maraka-marosimlar, udumlarga rioya qilish tartibotlarini absolyutlashtirish orqali Xalqimizning etnologik tarkibi va mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Manballarning guvohlik berishiga ko'ra, mug'o'llar bosqinidan so'nggi davrlarda Movarounnaxrda urf-odatlar kuchi ba'zan mahalliy hoqimlar hukmlaridan ham ustunroq mavqyelarga ega bo'lgan. Urf-odatlar, marosim va udumlar aholi uchun turmush tarzining asosi, ijtimoiy-ma'naviy o'zaklari vazifasini o'tab kelgan.

Eronlik Nodirshox istilosining oqibatida esa, yirik shaharlarimiz turmush tarzi, urf-odatlar mazmunida katta o'zgarishlar yuz beradi. Forslarga xos xususiyatlar, ya'ni ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini tamoman cheklash, paranjining yalpi kiritilishi, diniy mukkasidan berilishni rag'batlantirish jarayonlari amalga oshirildi. Rus bosqinchilari esa, dastlab maktab-maorif tizimini o'zgartirish, Yevropa turmush tarzini joriy etish, rus tilini singdirish, milliy qadriyatlarni toptash, milliy meros yodgorliklarini bosqichma-bosqich yo'qotib borish jarayonlarini rejali tarzda amalga oshirish orqali rus mentalitetining ustunligini odamlar ongiga singdirish yo'lidan bordi.

Mazlum ajdodlarimiz ruhidagi lafzi qat'iylik, turg'unlik, oriyat, nafsoniyat singari fazilatlarga qarshi uzoq davom etgan muntazam kurash boshlanib ketdi. Yarim asrlik chorizm tutquni, 70 yillik sho'rolar mustamlakachilik siyosati hal xarakterida mutelik, sotqinlik, xushomadguylik, ikki yuzlamachilik, halimlik singari xususiyatlarni rivojlantirishga kuch berib keldi. Millat bag'ridan o'sib chiqqan sog'lom novdalar o'z vaqtida qirqib, ixota qilib borildi. Odamlar farovonlik, erkinlikda emas, aksincha, qullik va zabunlikda tenglik me'yoriga majburan rioya ettirilib, kimda-kim zabunlikdan norozi bo'lgudek bo'lsa, bu haqida ma'lumot yetkazgan kimsalarga iltifotlar ko'rsatib turildi, iqtisodiy - moliyaviy sadaqalar berildi, xabarchilar davlat himoyasiga olindi. Odamlar xabarchilardan dastavval nafrat qilib davralardan bebaxra qilgan bo'lsalar, yillar o'tgach, izlar ko'milib, xabarchilardan odamlar cho'chiydigan, qo'rquv ortidan ularni davralarning to'riga boshlaydigan bo'lib

qoldilar. To'g'ri so'zni aytuvchilar kamaydi. Ayg'oqchilar tufayli o'z boshiga yana qo'shimcha ballolar yog'ilishidan yalpi cho'chish kayfiyati yoyildi.

Qo'rquv, cho'chish tuyg'usi esa yangilik, tashabbus, yaratuvchilik, bunyodkorlik, ilhom singari fazilatlar ro'yobini inkor etadi. Qo'rquv, xadiksirash hissi o'zlikni namoyon etishning asosiy, o'zlikni saqlash instinktiga urg'u beradi. Qo'rquv taraqqiyot kishani, kamolot, o'sish, o'zgarish uchun yo'l ham, imkon ham qoldirmaydi. Qo'rquv odamlarda hayot uchun eng zarur narsalarga bog'liqlik hissini oshiradi. Kishilarda ana shu eng so'ngi ilinjlar himoyasi yo'lidagi xavotir, vahima, jonsaraqlik ko'zga ayon tashlana boshlaydi. Eng zarur narsalar so'nggi bir yarim asrdagi mazlum o'zbeklar nazdida yegulik bir parcha non, bir tun, bir pichor, xotini, bolalari, bir parcha yeri, bir sigiri, bir turkum irim-sirimlar bilan uvadasi chiqib chirkin holatga kelib qolgan, o'zgaralar nazdida kulgili mohiyat - mazmun ifodalovchi urf-odatlar, maraka-marosim va hokazolardan iborat bo'lib qoldi. Nazarimda, mustamlakachilar Xalqimizni nafaqat o'z ma'naviyati, ma'rifati va madaniyatidan begonalashtirdilar, balki ular rejaviy tarzda Xalq extiyojlari, qiziqishlari, intilishlari ko'lamlarini ham cheklab, chegaralab bordilar. Natijada cheklangan extiyojlar ma'naviyati, yaqin maqsadlarni mo'ljalab yashash, o'z faoliyati natijalarini boshqalar bilan qiyoslashdan qochish, asli yo'q narsalarga ko'nish, oila, urug'-jamo'a, mahalla, qishloq doiralaridan chetga chiqmaslik va undan chetga chiqishdan o'zlikni beixtiyor tiyish holatlari umumiy xususiyatlarga aylandi. Millat xarakterida eskapistak mayil, ya'ni real borliqni aynan tasavvur etish, tushunish, yuz berayotgan hodisalarning mag'zini chaqish emas, balki voqyealar mohiyatini anglab yegishdan qochish, yolg'on tasavvurlarga berilish kayfiyatining kuchayishi avj oldi. Eskapisgak xususiyatlar, narsalar, hodisalarning tashqi ko'rinishiga maxliyo bo'lib qolishni ifodalab, yuz berayotgan voqyealarning asl mohiyatini anglab yetishdan qochish, illyuzalar bilan yashash holatlarida namoyon bo'ladi. Eskapizm jonli, ammo ongsiz mavjudotlarga aynan xos bo'lib, tuyaqushning xavf yaqinlashganda boshini qum tuproqqa tiqib turishi, qurbaqaning ilon og'ziga sakrashi, sarka ortidan suruvning jarga sakrashiga

o'xshaydi. Qattiq qo'rquv og'ushida qolgan go'daklar ham yuzini qo'llari bilan berkitib go'yo xavfdan o'zini himoyalashi ham eskapizmning bir ko'rinishidir. Demak, eskapizmning manbasi qo'rquv hissining chuqur o'rnashuvidir. Xalqimiz tarixining chuqur tanazzuldagi so'nggi 350 yil va ayniqsa so'nggi 150 yillari tahlili eskapizmning milliy mentalitet tizimida favqulodda kuchayganligidan guvohlik beradi va bu illat asoratlari hozirgi kunda ham o'zini namoyon etib kelmoqda. Eskapizmning yana bir negiziy manbasi-konformizm (moslashuvchanlik, har qanday iqtisodiy, siyosiy, ahloqiy vaziyatlarga tez ko'nikish, ilgari ma'naviy qadriyatlardan vijdon qiynog'isiz voz kechib ketaverish), irrashionalizm (hissiyot, hoxish, tuyg'ular asosida ish tutish, ko'ngil ra'yini ustuvor bilish, rashionalizm ya'ni aql bilan ish qilishning ziddiyat), va ma'rifiy intellektual jihatdan qashshoqlik omillari tashkil etadi.

Eskapizm insonga hayotda o'z o'rnini to'g'ri belgalay olishiga halal berishi va maqsad yo'lida odamlardagi kurashchanlik tuyg'usining rivoj topishiga monelik qilib turishi bilan o'ta xavfli ijtimoiy hodisa sanaladi. Eskapistik yondashuv kundalik turmush tarzimizda ham, mehnat faoliyatlarida ham, oila davrasida farzand tarbiyasida, do'st tugash, o'zaro munosabatlar va xakozo jabhalarda ham ko'zga tashlanib turadi. Yollanma mehnat kishisi dalada ketmon chopsa-yu, chopiqni dildan qilmasa, talaba domlaga «bilimlarim holatini baholab bering», deb emas, «baxo yoki reyting ballarini quyib bering deb murojaat etib tursa, er xotinidan daromadning bir qismini berkitib yursa, xotin eridan qizi sigareta chekishini yoki narkotik modaalar iste'mol qilishini yashirib yashasa, kasal ko'rgani borishning asl sababi ko'ngil ko'tarish emas, «ko'rgani ham kelmadi» deguvchi malomat bo'lsa, ta'ziya joyiga «mahalla gap qilmasin» deb kirib chiqilsa, uy yoki ko'chani har kuni toza tutmasdan faqat «mexmon keladi» deb tozalasa, supirib-sidirsas, ishxonada xodim ishlayapti emas, ishga kelgan degan tushuncha amal qilib tursa, boshliq idoradan chiqishi bilan butun jamoa besh minutda tumtarakay tarqab ketishi, tarbiya soatlari, uchrashuvlar, vatan tushunchasi mavzusidagi tadbirlarning bor-yo'g'i «o'tkazildi» degan

qaydnoma uchun qilinishi o'z-o'zini aldash, illyuziyaga berilish, eskapizmning ro'yi-rost namoyon bo'lishi holatlaridir.

Millat xarakteridagi bunday kusurlar barcha harakatlarimizdan qutiluvchi samaradorlik barakotga putur yetkazadi. Aniq maqsadlar, intilishlar, sa'y - harakatlarimizni besamara o'rinishlarga, sarobga aylantiradi. Chunki, taraqqiyot odamlar ongida o'zlashganidan keyingina madaniy qadriyat, e'zozlanuvchi omilga aylanadi. Bilaks davlat jamiyat va shaxs taraqqiyot darajalari o'rtasida katta farqlar yuzaga keladi, disballans holatlari shaxsning unga davlat tomonidan yaratiluvchi imkoniyatlarini munosib qadrlash, ahamiyatini anglashiga imkon bermaydi. Shu boisdan ham mamlakatning umumiy taraqqiyoti alohida individlar rivojining hosilasi va ana shu individual komilliklarning jamuljami, yig'ma ko'rinishdan o'zga narsa emasdir.

Millat xarakteridagi jamoaviylik va individuallik nisbatlari tahlili jamoaviylik omilining ko'pchilik nazaridagi ustuvor roli va mavqeyini bir qadar shubha ostiga qo'yadi. O'tkazilgan sotsiologik so'rovlar, ekspertlar (baobro' shaxslar, dono va katta tajriballarga ega qariyalar, mahalla faollari) fikrlari hamda maqsadli kuzatuvlar shundan guvohlik beradiki, o'zbeklar jamoaga umumiy mulohazalar yuritish maqomi, o'ylashga undovchi omil, rejalashtirgan ishlarini boshqalarga umumiy qiyoslab olish imkoniyati deb qarashlari ma'lum bo'ldi. O'zbeklar qaror qabul qilish asnolarida esa jamoaga qarab emas, shaxslarga, obro'-e'tiborli insonlar, mahalliy liderlarning xatti-harakatlariga monand va ayni muvofiq ish tutishlari aniqlandi. Xalqimiz mentalitetiga xos bo'lgan ana shu muhim o'ziga xoslik ya'ni, jamoaga qarab fikrlash, shaxslarga qarab qaror qilishdan iborat mazkur tamoyildan kelib chiqish katta ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda keng ko'lamlarda amalga oshirilayotgan ma'naviy yangilanishlar, tub islohotlar jarayonlarida samarali va to'g'ri foydalanish zarurdir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan to'ylar va marakamarosimlarni tartibga solish, ortiqcha sarf xarajatlar, isrofgarchiliklarga yo'l qo'ymaslik borasida qabul qilingan qaror ijrosi hamma joylarda ham bir xil

emasligi, bu boradagi kamchiliklarimiz negizida ham o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan, qaror qilishda mahalliy liderlar og'zini poylash, ularga taqlidan ish tugash holatlari bilan izohlanadi.

Albatta, bunday hol Xalqni boshqarish jarayonlarida mentalitet o'ziga xosligiga uning rivojlanganlik darajasiga mustahkam tayanish zarurligini taqoza etadi. O'zbekiston Qaxramoni shoir Abdulla Oripov umumiy turmush tarziga ega, bir tilda so'zlashuvchi odamlar majmuini Xalq deb odamlarning o'zini insonlar sifatida anglab muayyan maqsadlar atrofida ongli uyushgan holatini esa millat deb atashni tavsiya etadi.

Darxaqiqat, millat so'zining mohiyatida e'tiqod yo'lidagi birlashganlar, maslagi, g'oyasi yakdil fidoiylar degan mazmun mujassamdir. Xalq millatga nisbatan tarqoq tushuncha bo'lib ko'proq o'zini etnik jihatdan himoya qilishga intiladi va shu ko'lamlarda uning faollik darajasi chegaralanadi. Millatga aylangan Xalq esa o'z-o'zini siyosiy ma'naviy-ahloqiy, intellektual, mafkuraviy jihatlardan himoya qila oladi.

Millatga aylangan Xalq tarkibidagi insonlar ozod va erkin bo'lib, o'z so'zi, ishi, maqsadlariga qat'iy va shijoatkor, doimiy o'sish, o'zgarishlar ishtiyoqida yashaydilar. Millatga aylangan Xalqning har bir vakili mustahkam irodali, o'z e'tiqodiga sodiq, vatan mohiyatini anglagan bo'ladilar.

Ana shu sharoitda millat ma'naviyatiga xos bo'lgan ajdodlarimiz tomonidan ulug'lanib kelingan «butunlik» qadriyati bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Butunlik tushunchasi Xalqimiz uchun muqaddas ishonch yorligi sanalib unga sazovor bo'lgan shaxs uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochilgan. O'zbekiston Respublikasi «Ijtimoiy fikr» markazi tarkibida aholi turli qatlamlari o'rtasida o'tkazgan sotsiologik so'rovlarimizda odamlarning muayyan natijalarga erishish uchun o'z oldilariga qo'yadigan maqsadlari va shu maqsadlarni amalga oshirish borasidagi real intilishlari o'rtasida jiddiy farqlar borligini oydinlashtirdi. Xususan, aholining muayyan qismi ulug' maqsadlar yo'lida fidoiylilik, mehnatsevarlik, iroda zarurligini qayd etganlari holda turmush darajasini oshirish, farovon hayotni yuzaga keltirish

uchun haligacha davlatni asosiy boquvchi, ta'min etuvchi omil deb bilmogdalar. Holbuki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat aholini boquvchi emas, balki odamlarning boyishi va farovon hayot kechirishlari uchun zarur huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy shart - sharoitlarni ta'minlovchi institutga aylana boradi.

Xalqimizda «butun», butunlik atamalarining etimologiyasi qadimiy oltoy tillari guruhiga kiruvchi barcha Xalqlar uchun xos bo'lgan uch ilohiy kuch (energiya) manballari, «yan» «in» va «Si» nazariyalariga borib taqaladi. «Yan» bunyodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik, ulug'lik, yuksalsh timsoli bo'lib, barcha so'zlar shu kuchdan o'z ibtidosini boshlagan. O'zgarish, yuksalish, yaralish bilan borli so'zlarda «yan», «an», «yun», «on», «un» qo'shimchalari mavjud bo'lib, bu so'zlarning muqaddas «yan» ya'ni osmonning ilohiy kuchlariga dahldorligini bildirib to'rgan. «Yan» osmoniy kuch timsoli bo'lganligi uchun ham ruhga, abadiylikka dahldor, «in» esa yerga mansubligi bois vujud, tana, muvaffaqiyatlik ramzi bo'lib kelgan. Osmoniy iloxiyotga intilishning qadimiyligi, qon-qonimizda azaliy mavjudligi boisidan ham Turon yurtida o'nlab tasavvufning buyuk arboblari yetishib chiqqanligi ham bejiz emasdir. Eng qadimgi turkiy-o'zbek so'zlariga e'tibor qaratsak, ularning tarkibida albatga ana shu muqaddas qo'shimchalarni uchratamiz va beixtiyor dunyoning tizimiy, tartibli asoslarda yuzaga keltirilganligi, uning maxsus yaratilganligini, bilaks betartib va xatolik tarzda yuzaga kelmaganligiga amin bo'lamiz.

Agar, «yan» ya'ni osmoniy kuch timsoli bo'lgan so'zlar orqali («yangi», «yana», «yangramoq», «yandoshmoq», «yanga», «osmon», «anglamoq», «tangri», «yonmoq», «undamoq» va xakozo) o'sish, o'zgarish, takomilga urg'u berilsa «in» ya'ni yer, zamin kuchlarini ramziy ifodalovchi so'zlar (indamoq, ingramoq, in ko'rmoq iniga kirmoq, engashmoq, ini (ya'ni kichik) enish va xakozo) aksincha susayish, turg'unlik ortga qaytishga moyillik, regress mazmunini aks ettirgan.

Qadimgi Sharq falsafasi olam va inson taraqqiyoti, dunyodagi jamiki o'zgarishlar axvoli odamlarning ana shu ikki ilohiy kuchlarga munosabatiga

bog'liq bo'lib har bir insonning hayotidagi o'rni «yan» va «in» omillariga, unga nisbatan qanday yondashuviga ko'ra belgilanadi, deb ta'rif beradi.

Insonning hayot o'zgarishlarida to'g'ri yo'l belgilashi tabiat va ijtimoiy muhitda yuz berayotgan hodisalarni qay tarzda anglashiga ko'p jihatlardan bog'liq bo'lib, bu anglash jarayonlari esa voqyea—hodisalar, narsalarning mohiyatini aynan ifodalash, chuqur tushunib yetishiga yo'l ochadi. Darhaqiqat, dunyoda jamiki yuksak rivoj topgan mamlakatlarning Xalqlari fe'l—atvori, xarakteriga e'tibor qaratsak, ular hamma narsaga xushyorlik bilan, extiyotkorlik hamda me'yor darajalari doirasida baxo berishga moyilliklari, predmetlarni o'z ko'lami, xajmidan ortiq yoki kam ta'riflamaslikka intilishlariga amin bo'lamiz.

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiy bundan 2500 yil muqaddam nomlar voqyea va hodisalar, predmetlar mazmuniga ayni mos bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra bilaks, noto'g'ri ta'rif voqyea qanday ekanligini ifodalay olmaydi va noto'g'ri so'zlar yuzaga keladi. Noto'g'ri so'zlar esa ishning ijrosiga halal bera boshlaydi. Natijada ish bajarilmaydi. Ish bajarilmagandan keyin marosim va musiqaga extiyoj, xojat qolmaydi. Marosim va musiqa rivoj topmagach umumiy kayfiyatlar izdan chiqib, yaxshiga rag'bat berish tartiblari buziladi jazolar noto'g'ri, nohaq belgilana boshlaydi. Gunohlar uchun jazolar noto'g'ri belgilana boshlagach esa, omma o'zini qanday tutishni bilmay qoladi. Oxir oqibatda esa jamiyatda subutsizlik, yolg'onchilik aldov, muttahamlik, va'dabozlik keng yoyiladi.

So'zning ishga, vokelikka aynan muvofiq holatga keltirish uchun buyuk ajdodlarimiz jiddiy sa'y—harakatlar qilganlar. Tarixdan ma'lumki, Amir Temurga uning Hindistonga qilgan zafarli yurishiga bag'ishlangan tarixiy kitob Nizomiddin Jomiy tomonidan yozib tugatilgandan keyin tortiq qilinganda, Sohibkiron kitob bilan tanishib chiqqach, uning ifoda kuchi va mantiq uslubi bo'lib o'tgan voqyealarni aynan aks ettira olmaganligi uchun muallifga qattiq tanbeq berganligi va asarni qabul qilmaganligi katta saboqdir.

So'zlar va ta'riflarning hayot xaqiqat ta nomuvofiqligi buyuk Xorazmshoxlar davlatining inqiroziga, Mirzo Ulug'bekning achchiq qismatiga,

Boburning o'z yurtidan badarga bo'lishiga sabab bo'lgan, Xalqimizning necha bor bosqinchilar tomonidan istilo bo'lishiga olib kelgan. Fikri bilan so'zi, so'zi bilan amali, amali bilan shaxsiy turmushi monand va mos insonlarga Xalqimiz qadim — qadimdan «YaN» iloxiyotiga xos «butun odam» deb ta'rif berib kelganlar.

Butunlikka erishish, Xalqning ma'naviy butunligini ta'minlash uchun uch ming yillik ongli yozma tariximiz mobaynida ko'p martalab o'rinishlar bo'lgan. Bu borada Amir Temur va temuriylar xukmronligi davrida bir qadar muvaffaqiyatlarga erishilgan. Muayyan guruhlar, urug'lar, jamoalar doirasida butunlik, komillik darajalarini ta'minlashga muvaffaq bo'lingan. Ammo, bugun mamlakat, millat darajasida yalpi butunlikka erishish uchun umumiy sa'y — harakatlar ham, bunday birlashish zarurligini chuqur anglash holatlari ham bo'lmagan. Umummilliy intilishlarga qaraganda jamoaviy, sulolaviy, qabilaviy, guruhiy birlashuvlarga intilish va shunday uyushuvlar orqali ma'naviy komilikka o'rinishlar afsuski, ustuvor bo'lib kelgan.

Ko'p ming yillik tariximiz mobaynida umummilliy komillik va butunlikka bo'lgan intilishlar ilk daf'a mustaqillik tufayli Xalqimizga nasib etdi. Prezidentimiz I. A Karimov tomonidan Xalqimizning ma'naviy komilligi, millat butunligini tarkib toptirish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. O'zgarayotgan zamon va yangilangan maqon mantig'i Xalq xarakterida ilgari yetarli rivoj topmagan yangi fazilatlarni tarkib toptirish zaruratini kun tartibiga qo'yayotganligi, dono yurtboshimiz Xalqimizni ma'naviy uyg'onish, xushyorlik, atrofga keng nazar tashlash, qiyoslab harakat qilishga da'vat etib kelmoqda. hamma narsani inkor etaverishdan iborat nigilizmdan voz kechish, tushunib— tushunmasdan ko'krakdan itarishdan iborat illatlarimizni tashlash, avval yuzimizni o'girib kelgan ba'zi qadriyatlarga boshqadan holis baxo berish masalasi o'rtaga qo'yilmoqda.

Prezidentimiz «Fidokor» gazetasiga bergan intervyusida xaqiqatni topish uchun qarama—qarshi fikrlarni o'rtaga tashlash zarurligini ilgari suradi. Yurtboshimiz «Talaballar ziyoli yoshlarimizning o'zi keraqli xulosani chiqarib

olasan. Mana, misol uchun Freydning nazariy qarashlari, pragmatizm va ekszistensializm g'oyalari, Berdiyurov va boshqalarning falsafasidan o'rgansak, foydadan holi bo'lmaydi. Biz ko'p masalalarda g'arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini iloxiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz keraqlisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur» — deb uqtirganlari nechog'li xaqiqat ekanligini hayot tasdiqlamoqda. O'zbek mentalitetidagi ana shu jihat, ya'ni o'zgalarning fikr — qarashlarini oqilona me'yor darajasida baholashga no'noqligimiz, goh juda oshirib yuborishimiz, gohida esa boshqalarning nuqtai —nazarini mensimaslik, bepisand qarashdan iborat xususiyatlarimizni tan olib o'z—o'zimizni ma'naviy butlash yo'lida jiddiy tarbiyaviy ish olib borishimiz zarurdir.

Yurgboshimizning o'zbek millati mentalitetini progressiv o'zgartirish borasidagi yaxlit konsepsiyasi ikki katta yo'nalishdan iborat bo'lib, ularning birinchisi Xalqimiz fe'l— atvori, turmush tarzi, xarakteridagi salbiy xususiyatlarini evolyusion tarzda bartaraf etib borish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish, yaxshiga oid rag'bat, har bir ijobiy ishni qadrlash va taqdirlash, ibrat omiliga kuch berish siyosatidan iboratdir.

Nazarimda, ana shu ikki yo'nalishning sinxron ya'ni uyg'un kechishida muayyan murakkabliklar ko'zga tashlanmoqda. Bu borada Prezidentimiz va xukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatlarni joylarda uzviy davom ettirishda oqsoqliklar ko'zga tashlanmoqda. Mahalliy xoqimliklar, o'z—o'zini boshqarish organlari, tarbiya va ta'lim tizimi muassasalari yetarli faollik ko'rsatmayaptilar. Shaxs tarbiyasi, komil insonni shakllantirish, bugungi kun fidoiylarini yuzaga chiqarishda tizimiy ish olib borish ko'ngildagidek kechmayapti. Bu borada kompaniyabozlik, o'zi bo'larchilik, beparvolik, rasmiyatchilik, loqaydlik hollariga yo'l quyib kelinmoqda. Prezident I.Karimovning Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida quyidagi saboq beruvchi fikrlari bejiz aytilmagan edi... «Biron mahalla, xo'jalik yoki tashkilotining ishi orqaga ketsa,

shu joydan fayz — baraka ko'tarilsa, odamlarning kayfiyati yomonlashsa, buning asosiy sababi — shu yerda beparvolik va undan ham battari — loqaydlik avj olganida desak, o'ylaymanki, xech qanday xato bo'lmaydi.»

Rahbar loqaydligining ijtimoiy xavfi shundan iboratki, bu illat tez fursatda jamoa, guruh tashkilot uchun umumiy fe'l —atvor ko'rsatkichiga aylanib qoladi. Rahbarning mansab darajasi qancha yuqori bo'lsa, loqaydlikning ijtimoiylashuv ko'lami ham shuncha kengayib boradi, bu esa Prezidentimiz uqtirganlaridek, muammolarning yechilmasligi, imkoniyatlarning ishga solinmasligi, ishning joyidan siljimasligiga olib keladi.

Butunlik falsafasi, o'zgarayotgan zamon, bozor iqtisodiyotining talabchan ruhi rahbarlar tanlovi tizimi mazmuniga yangi o'lchovlar bilan yondashuv zaruratini ham kun tartibiga qo'ymoqda. Yurtboshimiz tomonidan kadrlar tanlovi ezgulik poydevoriga ko'rilishi, shurolar davridan qolgan tamoyillar (to'zumba sodiqlik, sudlanmaganlik, qavm-u — qarindoshlaridan birontasi jinoiy — javobgarlikka tortilmaganligi, mansab tajribasi, tavsiyalar) asosida, ya'ni, bo'lajak rahbarning ayblari, kamchiliklari yo'qligiga ko'ra tanlash emas, balki bo'lajak rahbarning yaxshi fazilatlari, insoniylik jihatlari salmoriga ko'ra (kasbining ustasi, vatani, Xalqiga sadoqati, fidoiyligi, o'ziga talabchanligi, mas'uliyatligi, shaxsiy javobgarlik hissining ustuvorligi, odamlarga yaxshilik qilishga rag'bat, shirinsuxanligi, halolligi, tinib — tinchimasligi, o'zi yonib boshqalarni ham yondirib yashay olish fazilati, ish va odamlar uchun jon kuydiruvchiligi, jamoani birlashtirish qobiliyati, maqsadlarga safarbar qila olishi, istarasi issiqligi, qat'iyatligi, kamtarligi) lavozimlarga tavsiya etish tamoyilining maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Mazkur konsepsiyaning muhim negiziy asosida Xalqimizning jamoaviylik tabiatini bunyodkorlik faoliyatlariga yo'naltirish, ommani yaratish ishlariga boshqarishda yetakchi, lider omiliga tayanish, har tomonlama komil, butun shaxslarning ibrat kuchidan samarali foydalanishning maqsadlari mujassamdir. Xullas, o'zbek mentalitetini zamon mantigaga muvofiq evolyusion o'zgartirishning yaxlit tizimi quyidagi jihatlar ro'yobini taqozo etadi.

1. Xalqimiz turmush tarzi, urf-odatlari, fe'l-atvori mazmunini umummilliy ko'lamlarda qayta-qayta chuqur mushoxada etish ortiqcha marosimbozlik, isrofgarchiliklardan bosqichma-bosqich qutulish yo'lidan borish;
2. Barcha sa'y - harakatlar, amallar, an'analar, to'y va marakalarni bajarish jarayonlarida qat'iy me'yor talablariga rioya qilishga o'rganish kichik oilaviy tadbirlarni mahalla, region, tuman, butun shahar miqyosidagi maraka - marosimlarga aylantirib yubormaslikka intilish;
3. So'z va ish birligiga rioya qilish, va'dabozlik, ortiqcha chiranish, eskapizm, maqtanchoqlikka moyillik singari illatlarga qarshi kurash olib borish, har bir narsa, hodisani o'z nomi bilan aynan ifodalashga o'rganish;
4. Butunlik falsafasini turmush tarzimiz, fe'l - atvorimiz mazmun mohiyatiga aylantirish, yosh avlod vakillarini butun shaxslar qilib shakllantirish, fikri so'ziga, so'zi amaliga, amali vatan manfaatlariga ayni muvofiq bo'lishiga erishish;
5. Odamlarda o'z fe'l - atvorlari, sa'y - harakatlari, intilishlari, ma'naviy qiyofasining holati xususida shaxsiy taftish malakasini shakllantirish, o'zi ustida doimiy ishlash, takomillashuv, o'zidan qoniqmaslik fazilatlarini shakllantirish, o'zi yonib boshqalarni ham yondira olish xususiyatlarini tarkib toptirish;
6. Ezgulik yo'lida fidoiy bo'lish, yaxshilik qilishga, boshqalarning tashvishiga yelkadosh bo'lishga tayyorlik fazilatlarini kamol toptirish;
7. Vatan ravnaqi Xalq farovonligi yo'lidagi intilishlar bilan shaxsiy sa'y - harakatlardan qutiluvchi manfaatlar uyg'unligiga erishish, Vatanning ostonadan faqat ichkariga emas, balki, tashqariga ham davom etishini chuqur anglash;
8. Yoshlarda ezgu va savob ishlarni har kuni va hamisha qilishga tayyorlik va shunga kuchli ichki rag'bat, extiyoj, intilish fazilatlarini tarkib toptirish;
9. Milliy merosni yalpi o'zlashtirish, qadriyatlarimizdan chin iftixor tuyg'ularini his etish, g'ururlanish va zavq ola bilishni tarbiyalash;
10. Insof, adolat, halollik, vijdon singari tamoyillar tarbiyasini doimiy ravishda muntazam tarzda olib borish, bu ishda rahbarlar, obro'li shaxslar, lider-yetakchilar, ota - onalarning shaxsiy ibrati omilidan samarali foydalanish;

11. Fuqarolarda o'zini jamoaning nafaqat mikdoriy - jisman a'zosi, balki, ma'naviy bo'lagi deb his etish, umumiy intilishlar, sa'y-harakatlar, maqsadlar tizimi, mazmuniga har bir inson o'z ulushi, hissasi nechog'li ekanligini anglashni shakllantirish;

12. Intelektual mulk ustuvor ahamiyat kasb etayotgan hozirgi zamonda har tomonlama va chuqur bilimlar sohibi bo'lishiga intilish, umumjaxon taraqqiyoti jarayonlariga faol integrasiyalashuv yo'lidan borish katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, buyuk kelajak taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishi o'zimizning qo'limizda ekanligi, bu maqsad barchamizning ma'naviy o'lchovimiz, shaxsiy va ijtimoiy mo'ljalimizga aylanishi bugungi kun taqozosidir. Darxaqiqat, Prezident Islom Karimov o'zining Birinchi chaqiriq O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida alohida qayd etganlaridek «mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, Xalqimiz tabiatini, mentalitetini inobatga oluvchi rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nixoyatda maqbuldir». (Harang. I.A.Karimov O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. T.: -O'zbekiston 1999. 14-bet.).

1.2.O'zbek mentaliteti o'zgarishlar: kecha va bugun.

Tabiat va jamiyatdagi barcha o'zgarishlar birinchi navbatda inson fe'l-atvori, ruhiyati mentalitetida o'z ta'sirini qoldiradi. Mentalitet o'zgarishlari esa, davlat tizimi, tuzilmalari va hatto jamiyat qiyofasini ham o'zgartirib yuborishga qodir ekanligi ayon bo'lmoqda.

Ma'lumki, dunyo hozirgi kunda umumiy ahloq, muayyan mazmundagi ma'naviy qiyofa, global mohiyatga ega tamoyillar uchun kurash fazasiga kirdi. Rivojlangan mamlakatlar nafaqat sanoat mahsulotlari, informasion va mafkuraviy ta'sir ko'rsatish omillari orqali keng ko'lamlardagi siyosat yurgizishmoqda, balki o'z Xalqi tabiati, fe'l-atvori, mentalitet o'ziga xosliklarini muntazam ravishda dunyo Xalqlari turmush tarziga, hayotining barcha jabhalariga izchil singdirishga intilmoqda. Dunyo Xalqlari uchun umumiy etiket, umumiy fe'l-atvor, umumiy mentalitet maxsus va izchil ravishda tarkib

toptirilmogda. Siyosiy, iqtisodiy va informasion globallashuv mentalitetlar, ruhiy o'ziga xosliklar, fe'l-atvorning standartlashuviga ham turtki bermoqda.

Garchi dunyo Xalqlari mentalitetlarining standartlashuvi muayyan ijobiy jihatlarni ifoda etsa ham o'z navbatida bir qator salbiy oqibatlariga ham olib keladi. Xususan, bu narsa Xalqning milliy o'zligidan chekinishga, madaniyatning vorisiylik an'alariga, milliy xarakter bir butuligiga putur yetkazadi.

XVI asr boshlaridan e'tiboran davom etgan siyosiy - ijtimoiy tanazzul va bir yarim asrlik mustamlaka davrlari mobaynida o'zbek xalqi o'zligini asrash, milliy birligini ma'naviy hamda ahloqiy yaxlitligini saqlab qolish borasida mislsiz matonat ko'rsata bildi. Milliy birlikni muxofaza etish jarayonlari zaiflashgan davlat xomiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyolilar, hunarmandlar, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi va quidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbek Xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligini saqlagan holda chiqa bildi;
2. Xalqimiz ma'naviyatining yorqin ifodasi bo'lgan urf-odatlar, an'alar, rasm-rusumlar, marosim va marakalar tizimi saqlab qolindi;
4. O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaho asarlarning katta qismi, yaxshilarcha talon -tarojlarga qaramay turli tadbirlarni qo'llash orqali asrab - avaylandi va avlodlarga yetkazildi;
5. Til birligi va tozaligini uzoq yillar davomida maxsus o'tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga qaramay saqlashga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turli xil millat ma'naviyatiga yot bo'lgan ahloqiy kodekslar, turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi uzluksiz tazyiqlarga qarmay Xalqimiz o'zining bag'rikengligi, saxovatpeshaligi, mexmondo'stligi, sabr-bardoshlilik singari chin insoniy fazilatlarini yo'qotmadi.

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan Xalqimizning millii o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'navii poydevorlariga jiddiy putur yetkazmaslik uchun olib borgan goh oshkora, goh xufyona kurashida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi:

1. Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarining teranligi va sertomirligi, boy ma'navii merosning mavjudligi;
2. Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq hayot esa turg'un mazmundagi urf - odatlarni taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'navii mo'ljallarida shahar ruhi, ma'naviyatining an'anaviy ustuvor mavqye kasb etib kelganligi;
3. Xalqimizning o'z milliy madaniyati, tili, san'ati, adabiyotiga muxabbati, urf-odatlar, rasm - rusumlar, an'ana va marosimlarga sodiqligi, Xalq odatlariga millatning ma'navii qiyofasi sifatida e'zozlab yondosha bilganligi;
4. Islom dini bilan Xalq an'anaviy madaniyatining uyg'unlashuvi, ta'kibdagi din bilan mazlum bo'lgan Xalqning ozodlik uchun kurashida e'tiqodiy birlik holati tarkib topganligi va mustahkam amal qilib kelganligi;
5. O'zbek Xalqining chidamliligi, cheksiz-chegarasiz sabr-bardoshi, bag'ri kengligi, g'animlarni beixtiyor qurolsizlantirishga qodir sofdilligi, samimiyati, mehribonligi, yordam va hamisha hamkorlikka shay qalbi va hokazo omillar Xalqimizning ma'navi, etnik hamda ijtimoiy - siyosiy vokelik sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon berdi.

Ayni vaqtda ta'kidlash joizki, shu davr mobaynida Xalqimiz yo'qotgan qadriyatlar saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha hissa ko'proqdir. Ayniqsa, o'tgan bir yarim asrlik mustamlaka davri va undan oldingi 300 yillik turg'unlik va tarqoqlik davri o'zbek Xalqi mentalitetida jiddiy asoratlar qoldirdi. Xalqimizga xos bo'lgan bahamjihatlik, hamkorlik, jangovarlik, axdga vafodorlik, sadoqat, har ishda birinchi bo'lishga kuchli rag'bat, so'z va amal birligi singari fazilatlarimizga jiddiy putur yetkazildi. Mamlakatimiz tarixidagi so'nggi 400 yil mobaynida Xalqni milliy birlashishga da'vat etish borasida sa'y - harakatlarning izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va hududiy

birlashish bilan qanoat hosil qilish og'ir oqibatlarni yuzaga keltirdi. Xalqimiz boshiga tushgan qirg'inbarot urushlar, iqtisodiy va ma'naviy xurlanishlar, millat tabiatida befarqlik, konformizm, mutelik, har qanday zo'rvonliklarga ko'nish hislatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa Xalqning tashqi tazyiqlarga qarshi tura olish, xavflarga qarshi kurashganlik, immunitet kuchini susaytirib yubordi. Natijada Xalqimiz tabiatida:

1. Turli ijtimoiy, siyosiy va hayotiy holatlarda aholining muayyan qatlamlari vakillarida so'z va ish birligining ma'lum darajada buzilishi;
2. Odamlararo mulokatlar tizimida shaxsning davlatga jamiyat tuzilmalariga bo'lgan munosabatlarida ishonchsizlik hissining yuzaga kelishi;
3. Ma'naviy merosga hurmat, vorislik an'analarning susayishi;
4. Milliy birlikka intilishdan ko'ra guruh, etnik, mahalliy va hududiy ayirmachilikka berilishning kuchayishi;
5. Xalq xarakterida yangiliklarga intilish, yaratish, bunyodkorlik hissidan ko'ra taqdirga tan berish, tangridan panoh izlash, qanoat, sabr -bardosh, ko'nikish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, «hamma narsa baribirlik» maylining ustunlik qilib, umumiy holat sifatida shakllanishi;
6. Hayotga ijodiy ko'z bilan, ya'ni aql va xushyorlik bilan, anglab yondoshuvdan ko'ra irratsional yondoshuvning kuchayishi;
7. Odamlarning ma'navii panoh izlab mutaassiblikka, ilmiy fanatizmga, ahloqiy agressivlik va maksimalizmga berilishi;
8. Hududiy sulolaviy, jamoaviy negizlardagi begonalashuv va ajralishlar tendensiyasining favqulodda kuchayishi;
9. Ma'rifiy tanazzulning chuqurlashuvi, savodsizlik darajasini ortishi kuzatila boshlandi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi o'tmishdan meros bo'lib o'tgan barcha holatlarga yangicha ko'z bilan qarash, yalpi tiklanish, umummilliy ma'naviy islohotlarni boshlash imkoniyatini beradi.

Istiqlol hammamizga mamlakatni yalpi sog'lomlashtirish, millii bir butunlikni ta'minlash, ma'navii yaxlitlikni yuzaga keltirish masalasini kun

tartibiga qo'yadi. Bugungi kun mantig'i Xalqimiz fe'l-atvori, mentaliteti o'zgarishlariga jiddiy e'tibor haratishga undaydi.

Prezident Islom Karimov «Tafakkur» jurnali va «Fidokor» gazetasiga bergan intervyularida, shuningdek «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi guruhi bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida Xalqimiz mentalitetini jiddiy o'zgartirish borasida dasturiy konsepsiyani o'rta qo'ydi. Davlatlararo va mintaqalararo siyosiy va iqtisodiy muloqotlar doiralarida o'z so'zini ayta boshlagan mamlakatimiz uchun tarafdorlar bilan bir paytda, holis tashqi va ichki siyosatimiz, «karvon o'tar...» faoliyatimiz va bunyodkor sa'y - harakatlarimizdan xasadgo'ylar, g'ayirlar guruhlar ham talay ekanligi ravshan bo'ldi. Ana shunday ijtimoiy - siyosiy vaziyat holatida nafaqat davlatning mustaqilligi, balki jamiyatimiz, har birimizning jipsligimiz kuchi dolzarb masalaga aylandi. Shu boisdan ham yurtboshimiz Xalqimiz tabiatidagi ishonuvchanlik, soddadillik, ochiq ko'ngillik fazilatlarini ijobiy hol sifatida qayd etish bilan birga, tashqi xavf - xatarlar xuruji kuchaygan murakkab shart - sharoitlarda mazkur xususiyatlarning amaliy o'rnini xususida jiddiy o'ylab ko'rishga da'vat etadi.

Xususan, yurtboshimiz tashqi tazyiqlar va ichki xavf-xatarlarga «soddadillik bilan, yuzaki tushunchalar» bilan na qarshi tura olish va na kurasha olish mumkin emasligini alohida uqtiradilar. Prezidentimiz millat mentalitetini o'zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishda asosan ikki yo'nalishda amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ya'ni an'anaviy azaliy an'analarimizga, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan Xalqimizning urf-odatlarini, tili, dini, ruhiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanish bo'lsa, ikkinchisi-umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib berdi. Ma'lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruhiyat omillari fe'l - atvor, xarakter tizimida o'zak jihatlari hisoblanib, barcha o'zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzini takomillashuvda esa ma'naviy — ma'rifiy omillar muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda «Ta'lim To'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasto'rining qabul qilinishi, ma'naviyat omilining davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylantirilishi, bu borada amalga oshirilgan keng ko'lamdagi faoliyatlarni millat fe'l - atvori, tafakkuri o'zgarishlariga jiddiy turtki berdi. Ikkinchi jihatdan esa jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik doiralarining, ilmiy - texnikaviy, madaniy uyg'unlashuv muntazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi, turmush tarzida yangicha yondoshuvlarni tarkib toptirayotir. Binobarin, har qanday taraqqiyot, sivilizasiyalar turli Xalqlar ma'naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlari va intilishlarining sintezidan turiladi.

Bugungi o'zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informasion intellektual texnologiyalarining ustivorligi davrida yana qanday muhim xususiyatlarga ega bo'lishi zarur? O'zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo Xalqlari fe'l - atvori tizimida miya faolligi, sa'yi - harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog'da har bir ishda rejaviylik, puxta tayyorgarlik, faxm - farosat, muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarini rivojtopishini taqozo etmoqda. Shuningdek, shaxs va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida subyektlar - insonlar rolining benixoya oshib borishi kuzatilmoqda.

Ana shu munosabat bilan I.Karimov Xalqimiz xarakterida pragmatistik, ekzistensialistik hamda rasionalistik xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ilgari surdi. Ma'lumki, pragmatizm - harakat, intilish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali muayyan fonda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadli sa'y - harakatlari, faoliyatlari unga mehnatiga muvofiq naf, fonda keltirishini ifoda etadi. G'arb kishisi tabiatan individualist bo'lib, manfaat omili uning barcha harakatlarini faollashtiradi, faol shaxs sa'y - harakatlari uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Bizda esa, shaxsiy foyda izlash boshqalardan ko'ra, o'zini ko'proq o'ylab ish tutish odob doirasidan chetdagi hol sanalib, kishini jamoadan begonalashtiruvchi, uni go'yoki xudbin qilib kuyuvchi omil vazifasini bajarib kelgan.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undaydi, fikrlab ish tutishga, tadbirkorlikka da'vat etadi. Bozor hamma narsaga ongli yondoshuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Me'yorsiz bag'rikenglik, xotamtoylik, saxovatpeshalik, agar lozim bo'lsa serchikimlilik, hisobsiz sarf-xarajat qilishga moyillik singari odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta - sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib boradi. Bu esa yurtboshimiz ta'kidlagan ekzistensialistik, ya'ni hayotga bugungi talablardan kelib chiqib, xushyor va oqilona yondoshuvlarni yoshlarimiz fe'l-atvorlariga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tarzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensiya holatida, ya'ni yashashga mas'ul va yashayotgan shaxs sifatida muntazam his etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas, ko'proq boshqalarni kuzatishga, kuzatayotganda ham ongli, tizimiy emas, betartib qayd etib yurishga moyilmiz. Ekzistensialistik yondoshuv insonni ongli, xushyor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy anglash va his etib turishga undovchi kuchdir. Bunday yondoshuv insonda o'zini o'zi doimiy tarzda yangilab borish, tashqi shart-sharoitlarga moslashuvchanlik, o'zini o'zi muxofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvga extiyoj sezish xususiyatlarini tarkib toptiradi. Ekzestinsialistik yondashuv kishini konformizmdan, ya'ni hamma narsaga ko'nib ketaverishdan, ortiqcha qanoatdan, befarqlik va loqaydliklarga berilishdan halos bo'lishga, o'z so'zi, o'z nuktai - nazari, e'tiqodiga qat'iy va barqaror bo'lishlikka da'vat etadi. Ekzestinsializm o'z so'zi, ishi va taqdiri uchun mas'ullik hissini ham tarkib toptiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur ulug' ajdodimiz Abu Mansur al-Moturidiyning har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini «o'zi yaratadi, inson erkinligi, xurligini ta'minlovchi kuch - har bir hayotiy vaziyatda oqilona me'yor, murosaviy muvozanatni ta'minlay bilish tamoyillariga rioya qila olishdan iboratdir» degan konsepsiyasiga ayni muvofiqligini hamda insonning har ishga qodirligi va masulligi g'oyasining mamlakatimiz tarixida ma'naviy poydevori mavjudligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham tarbiyaviy faoliyatlarimizda Xalqimiz ma'naviy merosi, xotirasida tarixan mavjud bo'lgan

milliy fazilatlarimizni qaytadan tiklash va bugungi kunimizga xizmat qildirish yo'lidan borishimiz zarurdir.

O'zbek mentaliteti o'zgarishlari tizimidagi yana bir muhim jihat-holi turli tabaqalari ijtimoiy - madaniy va siyosiy sa'y-harakatlari jarayonlarini me'yoriy va ongli boshqarishdan iboratdir.

Ma'lumki o'zbek Xalqi tabiatan yaxshiga xavasli, ibratga moyil, kattaga extiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik mayli kuchli Xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik, ibratga moyillik hislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni vatan ravnaqi yo'liga safarbar etish, bu fazilatlarimizni nopok kimsalardan, shubhali siyosiy oqimlardan muxofaza etish, g'animlarning g'arazli kirdikorlariga qurbon bo'lishdan asrash favqulodla muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz I.Karimov uktirishlariga ko'ra, boshqarish jarayonlari dastavval aholini e'tiqodlar, qiziqishlar va boshqa o'lchamlar asosida tashkillashtirish ishlarini tizimli yo'lga solishni talab etadi. Tashkillashtirish jarayonlarini esa, muayyan guruhlar tarkibidagi yetakchilar, lider shaxslar atrofida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, ergashuvchanlik tabiati ergashtiruvchilik omiliga doimiy extiyoj sezib turadi.

Ommani maqsadli boshqarish va bu jarayonlarni milliy manfaatlar va umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalga oshirish mamlakatning umumiy intellektual - estetik, ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotiga, siyosiy va ahloqiy barqarorligaga mustahkam zamin yaratadi. Jamiyatni maqsadli boshqarish Xalqimiz tabiatiga o'tmishdan salbiy meros sifatida o'tgan irrasionalistik kayfiyatlardan, ya'ni voqyelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o'zgarishlarni, Tashqi va ichki xavflarni anglab yetmasdan g'aflatda yashayverishdan ishonchli muxofaza etadi. O'zbek mentalitetida o'zgarishi zarur bo'lgan yana bir jihat - bu Xalq tabiatidagi jamoaviylik va individualizm omillarining nisbatidir. Ma'lumki, g'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida karaydi. Jamoa inson ichki,

bog'ini dunyosi, ruhiyati, shaxsii hayotiga mutlaqo aralashmaydi. Sharqda esa, jamoa asosan insonni ijtimoiy nazorat ostida to'tib turish, shaxsning jamoalardagi muntazam ishtiroki uning umumiy ahloqiy me'yorlar doirasida ish tutayotganligining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ayricha ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida araladi. Ammo jamoaviylik nisbatining mutloqlashtirilishi shaxs erkinligi va ozodligiga xavf tug'dirish mumkin. Shu boisdan ham o'zbek mentalitetida jamoaviylikka me'yoriy bog'liqlik fazilatini saqlagan holda uning bir qadar individuallashuvi, javobgarlik hissini rivojlantirish, o'zi uchun o'zi hisob bera olishi, Mustaqil ish tutish, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarini yanada takomillashtirish zarurdir. Ammo shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson fe'lida individualistik tabiatning kuchayishi uni urf - odatlar, marosim va an'analar bilan boshqarish samaradorligini pasaytiradi. Inson o'ziga bevosita naf keltiruvchi udumlar, rasm-rusumlar bilan yashashga o'ta boshlaydi. Darhaqiqat, har qanday odatlar, marosimlar kishilarga foydali bo'lganligi uchun kam yashovchidir. Odamlar hayotini og'irlashtiruvchi, ularni qiyin iqtisodiy, moddiy - ma'naviy holatlarga solib quyuvchi rasm - rusumlar esa jamiyatning nechog'li rivojlanishiga ko'ra asta-sekin barham topa boradi. Jamiyatning intellektual-ma'naviy darajasi qancha yuqori bo'lsa, qonunlarning o'rni va roli muttasil orta boradi. Shu boisdan ham atoqli nemis sotsiologi Zimmel, odamlarni ularning taraqqiyot darajasiga ko'ra uch xil boshqarish mavjud. Ba'zilar, deydi u, - shaxsiy namunalar, ko'rsatmalar bilan, boshqalarni urf-odatlar, rasm-rusum va an'analar bilan boyitish, eng rivojlanganlarini esa, faqat qonunlar vositasidagina boshqarish mumkin.

Darhaqiqat rivojlangan g'arb mamlakatlarida Xalq an'analari, urf -odatlari faqat maishiy turmush doiralarida amal qilib, bir qadar cheklangan bo'lib, fuqarolarning keng ko'lamlardagi hayot tarzi, davlat va jamiyat tuzilmalari, ijtimoiy munosabatlar tizimi asosan qonunlar vositasida boshhariladi. Yuksak rivojlangan an'anaviy Sharq mamlakatlari -Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ham Xalq odatlari, an'analarning jamiyat hayotidagi

mavqyeiga nisbatan qonunlar ta'sirining salmog'i juda yuqoridir. Shunday ekan, mamlakatimizda ham umumiy iqtisodiy, texnologik va ma'navii taraqqiyotimiz darajasi nochorli yuqorilab borishi bilan jamiyat hayotida qonunlarning o'rni va roli shunchalik ortib borishi tabiiy holdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, huquqiy davlat qurish, qonun ustuvorligini o'rnatish, yalpi ma'naviy tiklanish jarayonlari, fuqaroviy jamiyat va komil inson shaxsini tarkib toptirish vazifalari birinchi navbatda millat mentalitetini bugungi kun talablari bilan muvofiqlashtirish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. O'zgarayotgan O'zbekiston kelajagi ozod va ongli fikrlovchi fuqarolarning erkin tafakkur tarzi, ularning yangilikka tashna bunyodkorlik ruhi hamda faqat o'zgargan o'zbek mentaliteti vositasida yaratilishi shubhasizdir.

Shu boisdan ham, Prezident I.Karimov ilgari so'rgan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati ozod va ongli shaxs ma'naviyatini tarkib toptirish dasturlari pirovard natijada yurtimizda qonun ustuvorligi ruhini mustahkam qaror toptirish, aholini milliy istiqlol yo'lidan maqsadli boshqarish orqali amalga oshadi.

1.3.Fuqarolik jamiyati va o'zbek mentaliteti uyg'unligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari.

Dunyo o'zgarishlari mazmuni umumiy yondashuvlarga, murosa va hamjihatlikka erishishga da'vat etuvchilar bilan xususiy xaqiqat tarafdorlari ya'ni faqat o'z manfaatlarini yo'lida kurashuvchilar o'rtasidagi bahs-munozara keskinligining tobora ortib borishi bilan izoqlanmoqda. Insoniyat yakdil fikr qilish, umumiy sa'y-harakatlarga erishish, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ziddiyatlarni faqat yalpi bartaraf etish uchun kurashish zarurligining zamon taqozosi ekanligini tobora ravshanroq anglamoqda.

Umumiylashuv jarayonlarning kengayishi insonning hayot va jamiyatdagi o'rnini va roli masalasiga o'zgacha yondashuv zaruratini ham kun tartibiga chiqmoqda. Shaxsning jamiyatdagi o'rnini tobora qat'iylashib, uning bevosita o'z imkoniyatlari orqali yoki muayyan jamoa, guruh vositasida ijtimoiy hayotga ko'rsatuvchi ta'siri ortib bormoqda.

Ma'lumki, ayni davrdagi demokratiya tartibotlari g'arb dunyosida tugilgan hodisadir. Hozirgi paytda dunyo Xalqlari hayotiga singdirilayotgan demokratiya tamoyillari g'arbiy Yevropa Xalqlariga mos bo'lgan turmush tarzining adolat tamoyillari bilan yug'rilgan namunasidir.

Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv, ya'ni, umumiylashuv jarayonlarining mushtarak qismi sifatida namoyon bo'layotgan g'arbona demokratlashuv Sharq Xalqlari hayotiga muayyan qiyinchiliklar orqali tomir otmoqda. Bu yo'lda har bir davlat o'ziga xos murakkabliklar davrini o'tashiga, ba'zan esa kutilgan natijalarning mutlaqo teskari holatlariga ro'para bo'lib qolishiga ham to'g'ri kelmoqda. Agar demokratiyaning asosiy talablaridan bo'lgan inson haq - huquqlarini teng ta'minlash, va uni adolatli himoyalash zarurati an'anaviy buddaviylik diniga ishonuvchi mamlakatlarda, xususan, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Tailand singari davlatlarda bir qadar silliq kechayotgan bo'lsa, islom qonunlari barqaror bo'lgan Sharq mamlakatlarida bu jarayon jiddiy siyosiy bo'htonlar, og'ir yo'qotishlar hisobiga amalga oshirilmoqda. Hatto, g'arbona demokratiya tartibotlarini singdirishga bo'lgan

ayrim o'rinishlar tamoman teskari oqibatlarini tug'dirib qo'yganligi ham yaqin tariximizdan ma'lumdir. Masalan, 70 - yillarda g'arbona demokratiya, sivilizasiyalashgan turmush tarzini Eron davlati turmush tarziga singdirishga bo'lgan podshoh Muhammad Rizo Paxlaviyning sa'y-harakatlari nachora chippakka chiqqanligiga, an'anaviy diniy yondashuv tarafdorlarining yalpi bosh ko'targanligi, oqibatda esa uning o'zi mamlakatdan jon saqlab qochganligi va bugungi kunda esa Eron davlati islomiy an'analar muhitida yashashga o'tganligi, g'arb demokratiyasi va turmush tarzining bu mamlakatda rad etilganligi barchaga ayondir. Xuddi shunday holat yoki o'xshash manzaralar Afg'oniston, Efiopiya, Somali singari davlatlarda ham ro'y berganligi bejiz emas. Hayot maromini mavjud an'analar, urf-odatlar, milliy turmush o'ziga xosliklarni bepisand inkor etish asosida o'zgartirish naqadar fojeali oqibatlarga olib kelganligini Tojikiston, Checheniston, Yugaslaviya Xalqlari boshiga tushgan kulfatlar misolida ham ko'rish mumkin.

Ayni chog'da ta'kidlash zarurki, hayot rivoji qonuniyatlarining beto'xtov amal qilishi hamma yerda ham o'zgarishlar muqarrarligini qayta - qayta tasdiqlamoqda. Eng muhimi mazkur o'zgarishlarni umumjahon globallashuv jarayonlarining uzviy jihati sifatida anglash darajalarining turli xilda ekanligi muammoning samarali yechilishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Demokratiyani qanday qilib singdirish mumkin?

G'arb Xalqlari uchun har qanday muammoning yechimini manfaatlar hal etishi umumiy qonuniyat hisoblanadi. Manfaatlar silsilasida iqtisodiy manfaat ayniqsa ustuvor ahamiyatga ega. Ingliz mentalitetini yaxshi bilgan mashhur davlat arbobi U.Churchill «Angliya taqdirini uning doimiy do'stlari emas, balki doimo o'zgarib turuvchi manfaatlarini belgilab kelgan» degan edi.

G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan farq qilib, Sharq Xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa inson sha'ni obro'-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini mutanosiblashtirishni, birining ketidan mantiqiy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan, xususan otaga extirom, ona e'zosi,

aka va uka hurmati, qavmu — qarindoshlar totuvligi, kuni — qo'shnilar ahilligi qadriyatlar sifatida muayyan ketma— ketlikda, qadrlanish darajasiga ko'ra iyerarxik shaklda hayotdan o'rin olib kelgan. qadriyatlar qatoridagi tartiblarning buzilishi jamiyat, sustroq esa, davlatning nurashiga olib kelgan. Iyerarxiya Sharq turmush tarzining maromini belgilab turuvchi muvozanat me'yori, eng asosiy tamaltoshlaridan hisoblangan. Iyerarxik tizim hamma jarayonlarning o'z oqimida kechishiga, po'rtanalar yuz bermasligiga kafolat vazifasini o'tab kelgan.

Sharq Xalqlari turmush tarzi murakkabliklari to'g'risida o'lmas obidalar yozib qoldirgan qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiy dunyo barqarorligi faqat moddiy boyliklarning teng taqsimlanishigagina emas, balki umum tomonidan e'tirof etilgan tengsizliklarga tayanishga bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Atoqli mutafakkir odamlarni tinchitish uchun ularni tenglashtirish emas, balki, adolatli tabaqalashuviga erishish zarur deb o'rgatadi. Dunyo tinchligi - uning fikr qarashlariga ko'ra, «ota va bola», «er va xotin», «xokim va fuqaro», «aka va uka» «ustoz va shogird», o'rtasidagi tengsizlik maromining nechog'li saqlanishiga borliqdir. Mabodo ana shu besh tengsizlikning biror bir buginiga darz ketgudek bo'lsa, dastlab oiladan, keyin jamoa, jamiyat va nixoyat davlatdan baraka, fayz ko'tariladi va umumiy inqirozlarga yo'l ochiladi.

Tengsizlik tartibotining mazkur formulasi nafaqat uzoq Sharq, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarida asrlar mobaynida amal qilinib kelingan. Buning tamomila aksi sifatida g'arb dunyosi har bir fuqaroning xech bir istisnolarga borliq bo'lmagan real tengligiga erishish uchun necha asrlab kurash olib bordi va bunga erishdi ham.

Biz bugun yalpi tenglik uchun kurash harakati muayyan ma'naviy qadriyatlarning narxi pasayishi, insoniylik, ezgulik singari tamoyillar ahamiyatining susayishiga olib kelganligidan qat'iy nazar, g'arb mamlakatlari uchun umumiy yuksak taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini tug'dirganligini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ayni chog'da yalpi tenglikka erishish jarayonlari oqibatida odamlararo munosabatlardagi iliklik, ma'naviy qadriyatlarning narxi

pasayishi, samimiyat, ezgulik, hamdardlik singari tamoyillarning hayotdagi ahamiyati susayishiga olib kelganligini ham unutmasligimiz zarurdir. Bugungi g'arb dunyosi uchun individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafkatsizlik xususiyatlarining shaxs sifatlariga aylanib qolayotganligini ommaviy axborot vositalari tashvishlanib qayd etmoqda. Shu boisdan ham O'zbekistonda Xalqimiz ma'naviy yaxlitligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilish siyosati izchil yurgizilmoqda.

Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanligini e'tiborga olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko'rinadi. Birinchidan, fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganligida; Ikkinchidan, fuqarolarning turli ijtimoiy - siyosiy va madaniy-ma'rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlanganligi va real amal qilayotganligida; uchinchidan, ma'naviyat, ma'rifat va odob —ahloq tamoyillari orqali insonning insonligini o'ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotganligida; to'rtinchidan, bozor iqtisodiyotining shafqatsiz muhitiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qat'iy amal qilinayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mazkur omillarning umumiy va pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos ifoda kasb etadi.

Shunday qilib, Sharq Xalqlari uchun g'arbgacha xos bo'lgan hammani bir xil qarichda o'lchovchi total ya'ni, yalpi tenglik formulasi emas, balki insoniylik talablari to'laroq bajariluvchi iyerarxik tenglik (pastdan yuqoriga, bosqichma-bosqich rioya qilinuvchi munosabatlar tizimi) formulasi ko'proq mos keladi.

Iyerarxik tenglik formulasi Konfusiy ta'kidlagan insoniy qanoat insof, diyonat, hurmat, kattaga hurmat, kichikka izzatdan iborat, anglangan cheklanishlarni e'tiborga olgan holda yashashni taqozo etadi. Mazkur talab jamiyatni faqat qonunlar kuchi orqaligina emas, balki ma'naviyat undovi vositasida ham boshqarishga yo'l ochadi.

O'zbek mentaliteti demokratiyaga qanday ta'sir etadi?

O'zbeklar tabiatdan jamoaviy Xalq bo'lganligidan o'zligini hamisha atrofdagilar munosabatiga ko'ra anglashga moyildir. O'zlikni jamoada anglash tamoyili esa kishilarning oilada, mahalla—kuyda, ishxonada, jamoat ishlarida qanday baholanishi bilan o'lchanadi. Masalan, to'ylarimiz yoxud marakalarimiz obro'sini atrofdagilarning tadbirimizga qanday munosabatda bo'lishi, ya'ni kimlar qatnashishi, qancha odam kelishiga ko'ra baholashga o'rganganmiz. Bu jihat yuz yillar mobaynida turmush tarzimizda teran ildiz otib bo'lgan.

Ammo, butun dunyo va jamiyatimizda vaziyat tamoman o'zgacha manzara kasb etib ulgurdi. Biz bu holatni, ya'ni o'zgargan dunyoni ham tuda anglab yetmayotmaganligimizni ham tan olishimiz kerak. Birinchidan, dunyoning hayot maromi, umr sur'ati tezlashib jo'shqin mazmun kasb eta boshladi. Ikkinchidan, bozor talablari hamma narsaga sergaklik bilan yondashish, hisob—kitobni qa'tiy olib borish zaruratini kun tartibiga chiqazdi. Uchinchidan, dunyo jarayonlari bilan doimiy hisoblashish atrof mamlakatlarda yuz berayotgan jamiki voqyea—hodisalarga dahldorlik tuyg'usini kuchaytirish zaruratini muhim talablar darajasiga chiqazdi. To'rtinchidan, har bir siyosiy guruh, jamoa yoxud shaxs dunyo jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari bexad o'sdi. Bunday sharoitda odamlarning tor biqiq muhitda yashash va faoliyat ko'rsatishlari, faqat o'z an'analari doirasida turmush kechirishlari mumkin bo'lmay qoldi.

Dunyo o'zgarishlarining muqarrar mantig'i jamiyat va fuqarolarga ham o'z turmush tarzlarini mutanosib o'zgartirishlarini qat'iy talab qila boshladi.

Istiqlolimizning dastlabki pallasidayoq ana shu katta ijtimoiy extiyojni o'z vaqtida donishmandlik bilan anglagan Yurtboshimiz jamiyat hayotini islox etish, an'ana va marosimlarimizni dunyo o'zgarishlari mantig'iga binoan muvofiqlashtirish tashabbusi bilan chiqdi. To'y va marakalarni tartibga tushirish, ortiqcha isrofgarchilik va dabdababozlik bilan o'tkazmaslik to'g'risidagi Prezident farmonlari e'lon qilindi. Joylarda bu farmon mamnuniyat bilan qabul qilindi. Ko'pgina hududlarda farmonning kuchi va vositasida to'y

va marakalar ixchamlashtirilib, xalqni an'analarning og'ir yukidan halos etish jarayonlari kizg'in tus oldi. Ammo mazkur farmonlarni kutilgan darajada hamma joyda ham bir xil samarali tadbiq etilmaganligi bois, ma'lum va urganilgach, o'rganilgan odatlar odamlarni yana o'z iskanjasiga ola boshladi. «Kim o'zarga» Xalqqa to'y berishdan iborat bachkana illatlar qayta jonlanib, turmush tashvishlari yukini yanada orirlashtira boshladi. Bunga bois, o'zbek mentaliteti omilidan joylarda yetarli foydalanilmay kelinganligida edi. Odamlardagi o'rganilgan steriotiplar, odatlarga moyillik xususiyati bilan zamana talablari o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi. Odamlar «bunday odatlar bizda bunda—yu, boshqalarda qanday ekan» deb atrofga alanglay boshladilar. Voqialar bilan qiyoslash shuni ko'rsatdi—ki, bunday dabdababozlik, keraksiz ayu —xannoslarni O'zbekistondan boshqa xech qaysi yurtda qilinmas ekan. Jamiyatda urf—odatlarga tanqidiy ruh yuzaga keldi. Ammo, faqat kayfiyat bilan hali xech narsani hal etib bo'lmaydi. O'zbeklarga xos «qani endi kim nima qilar ekan degan va endi kimning ortidan ergashib, kimdan ibrat olamiz» degan mulohazalar, uy—istiholalar ham tarkib topdi.

Shu o'rinda O'zbekistondagi jamoaviylik tabiatining muayyan cheklanganlik jihatlari esga tushadi. Ya'ni Xalqimiz vakillari biror bir tadbir (to'y, maraka) qilishdan avval qavm—qarindoshlar, mahalla, ishxona, tanish—bilishlar tajribasini mushoxada qilib ko'radi, bu xaqda uylaydi, fikr almashadi va hatto maslaxat ham qilib oladilar. Va bu jarayon shu yerda to'xtaydi. To'xtamga, qa'tiy bir fikrga kelinmaydi. «Ko'rpaga qarab oyoq o'zatish» taomiliga hamisha ham amal qilinavermaydi. Qat'iy fikrga kelish uchun esa o'zbeklarga obro'—e'tiborli odamlar, ya'ni to'y maraka qiluvchi uchun muayyan martaballi shaxs, «rahbarga taqlid qilish, tayyor andozaga tayanish taqozo etiladi. O'zbeklar tabiatan jamoaviy bo'lishiga qaramay shaxslar, liderlar ibratiga favqulodda extiyojmand xalqdir.

Shunday qilib ta'kidlash lozimki, o'zbeklar jamoaga qarab fikr—qiluvchi o'ylovchi, tahlil etuvchi ammo faqat shaxslarga, liderlarga qarab ish qiluvchi, qaror va xulosalarga keluvchi, xalqdir. Mazkur formula xalqimizni demokratiya

tartibotlariga o'rgatishda ham juda asqotadi. Zero, demokratiya nafaqat shaxs xaq—huquqlarini himoyalash, balki, boshqalarga halal bermay yashash, jamoaga doimiy ravishda ijtimoiy naf keltirib borish omili hamdir.

Xalqimizni ibratli yo'lga, jo'shqin faoliyatlarga samarali undash uchun odamlardagi o'z rahnamolari, liderlaridan rag'bat olish moyilligiga jiddiy urg'u berish, har bir ishda rahbarning shaxsiy namunasiga e'tibor qaratish katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz o'z tarixidan qachon o'z liderlariga komil ishonch bilan ergashgan bo'lsa, zafar quchib, obro'—e'tibor, shon —sharaf qozonib kelgan, qachonki, o'z liderlariga tanqidiy ko'z, shubha kayfiyatiga berilib yondashgan bo'lsa parokandalik, bebarakalik, qo'rqqoqlik, zaiflik botqoqidan chiqq olmagan.

Jamiyatdagi obro'—e'tiborli shaxslarga el oldida nazarga tushgan liderlar omiliga tayanish asosida ish tutish har bir boshlangan ishda shubhasiz samara beradi. Prezidentimiz I.A.Karimovning shu yil Surxondaryo viloyatida hamda Oliy Majlisning 8 va 9 sessiyalarida so'zlagan nutqlari rahbar shaxs omilining yurtni yashnatish, elni farovon qilish borasidagi katta o'rni va roli xususida qayta—qayta ta'kidlab aytgan so'zlari zamirida ham millatni farovonlikka erishtirish g'oyasi mujassamdir.

Milliy g'oya mohiyati-birlashishdir.

Taraqqiyot extiyoji xalqlarda milliy g'oyani katta ijtimoiy siyosiy zarurat darajasiga chiqadi. Milliy g'oyaning bosh maqsadi ham odamlarni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirishdan iboratdir.

Xalqimiz jamoaviy tabiatli ekanligi bois, azaldan birlashga moyil bo'lib kelgan. Ammo, bu birlashish aksariyat hollarda muayyan urug', hudud, qavm doirasidan yuqoriga chiqq olmagan. Tashqi dushmanlar esa xalqimizning ana shunday tarqq birlashuvlaridan ustalik bilan foydalanib kelganlar. Bir urug' yoki muayyan hududga qilingan taxdidni boshqa urug' o'ziga keyinroq muqarrar keluvchi taxdid tarzida yetarli darajada anglamagan. Tariximizning deyarli barcha davrlarida yuz bergan fojealar tarqqqligimiz, millat darajasida birlashmag'animiz oqibatida yuz berib kelgan.

Xalqimizning asl farzandlari, ulug' mutafakkirlarimiz g'oya doirasida birlashish zarurati xususida kuyinib fikr bildirganlar. Xalqimizda ham «maqsadlar yo'lida birlashganlar birga g'olib bo'ladilar, ayrilganlar esa ayri—ayri mag'lub bo'ladilar» degan dono naql bejiz aytilmagan.

XX asr boshlarida jadidchilik harakatining boshida turib, Xalqni birlashtirishga harakat qilgan Maxmudxuja Bexbudiy ham umummilliy birlashish, birlashganda ham faqat ma'rifatli birlashishgina millatni xurriyatga olib chiqadi, deya qayta — qayta ta'kidlab o'tgan edi.

Istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq Yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilgan tinimsiz sa'y—harakatlar natijasida xalqimizning uzoq tarixi mobaynida nixoyat milliy birlashuvga erishdik. Bu birlashuv goh mahalliy, goh mintaqaviy va goh global tahdidlar og'ushida ogir sinovlar jarayonida katta qiyinchiliklar bilan qaror toptirildi.

Shunday qilib, ta'kidlash joizki, milliy g'oya dastavval birlashtirish mohiyatiga ega bo'lgan maqsadlarni taqozo etadi. Shu boisdan Yurtboshimiz «biz avvalambor qanday jamiyat ko'rmoqdamiz, o'z kelajagimizni qanday tasavvur etamiz, degan savollarga o'z javoblarimizni aniqlashtirib olishimiz, shundan keyin odamlarimizni ana shunday oliyjanob maqsadlar atrofida birlashtirshpimiz zarur» deb alohida qayd etgan edilar. (I. Karimov, Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot—pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8—tom, 465 bet).

Demokratiya tizimining pirovard maqsadi insonlar orzu—umidlarini ro'yobga chiqarish ekan, milliy g'oya bu maqsadga odamlarni ezgulik yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi milliy birlashuv o'zbek mentalitetini puxta hisobga oluvchi, g'arb faolligi, jo'shqin energiyasi bilan Sharq bosiqligi, donishmandligi, yuksak ma'naviyatini mutanosib uyg'unlashtirgan, o'ziga xos sintez holatidagi birlashuvdir.

Shunday qilib, demokratiya odamlarni turli siyosiy qarashlar, mazxablar, qiziqishlar, intilishlar, kayfiyatlar, etnik o'ziga xosliklar negizida birlashib

harakat qilishlarini taqozo etsa, milliy g'oya alohida uyushgan fuqarolarni yagona maqsad darajasida jamlanib harakatlanishiga ma'naviy zamin hozirlaydi. Demak, milliy g'oya xalqlararo birlashuvlarning oliy darajasi hisoblanadi.

Milliy g'oya o'tish davrining bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida turli mamlakatlarda sinovlardan o'tib, o'zining hayotchanligini isbotlagan. Agar o'tgan asrning o'rtasida fashistlar Germaniyasi tazyiqi bilan taslim bo'lgan Fransiya davlatida vatanparvar general Sharl de Gollning dushmanga bo'yin egmaslik da'vatidan turilgan umumfranso'z «Qarshilik ko'rsatish harakati» bu davlatni Ikkinchi jaxon urushi nixoyasida g'oliblar davrasida turish sharafiga erishtirgan bo'lsa, ingliz mustamlakachilari asoratidan halos bo'lish harakatiga boshchilik qilgan Maxatma Gandi xind xalqini «tinch isyon» ko'tarish, ya'ni, g'animg'larga qarshi biror bir o'q uzmasdan, qon to'kishga yo'l qo'ymasdan yalpi norozilik namoyish etish, istilochilar bilan hamkorlik qilishdan tamomila voz kechish ularga mutlaqo xizmat qilmaslik, yakkalab qo'yish orqali ozodlikka chiqish g'oyasini asoslab bergan va bunga erishgan edi.

Xuddi shunday umummilliy birlashuvning tinch, bunyodkorlik sharoitidagi shakli Yaponiya davlati misolida ham yakkol namoyon bo'lgan edi. Yaponlar o'z xalqi sharafigini har bir kishi o'z ish joyida fidoiylik namunalarini ko'rsatish orqali himoyalashi, «har bir shaxs taraqqiyoti pirovard natijada umumyapon taraqqiyotini shakllantiradi» degan harakat doirasida birlashib intilganliklari bois mamlakatni yuksak taraqqiy topgan davlat darajasiga chiqazdi.

Milliy g'oyaning hayotbaxsh kuchi nechog'li qudratli ekanligini anglagan Rossiyada ham hozirgi paytda millatni birlashtiruvchi g'oyani izlash harakati avj oldirilmoqda. Bu haqda Rossiya ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda maqolalar, obro'-e'tiborli shaxslarning chiqishlari berib borilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy g'oya har bir xalqning o'ziga xos xususiyati, madaniy-tarixiy tajribasi, mentaliteta, o'ziga xos turmush tarzi mantig'idan turiladi. Milliy g'oyaning turli belgilanishi mamlakatni dastavval tinchlik, barqarorlikka, so'ng esa jo'shqin taraqqiyot natijalariga erishtiradi.

O'zbekistonda milliy g'oya mohiyatining daholarcha turli belgilanganligini yaqin tariximiz yaqqol isbotlab berdi. Yurtimizda tinchlik, barqarorlik o'rnatildi. Odamlarning tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabatlari tizimi o'zgardi. Fuqarolarning davlat va jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga dahldorlik hissi kuchaydi. Xalqaro maydonda jonajon O'zbekistonimiz so'zi hurmat bilan eshitila boshlandi. Mamlakatning iqtisodiy, texnologik, ma'naviy—intelektual taraqqiyot yo'nalishlari tubdan o'zgarib, yalpi rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildik. Ma'naviyat, ma'rifat, odob-ahloq milliy taraqqiyotimizning ustuvor mezonlariga aylandi.

II-BOB. O'ZBEK MENTALITETINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI AMALIY O'RGANISHDAN OLINGAN EMPERIK TAHLILLAR.

2.1. Shaxs yo'nalganligining diagnostikasi va tahlili.

Ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib, ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin (A, B, S tarzida).

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasidan Sizning ichki dunyongizda eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz-“V”).

Endi javob varaqasining tegishli satridan “V” harfini topib, uning chap yoniga (“to'g'ri keladi” degan so'zlar ostiga) belgi (“+”) qo'ying.

O'sha so'zni yana bir marta o'qing. Endi qolgan ikki javob varianti (“A” va “S”) orasidan sizning nazaringizga eng kam to'g'ri keladiganini yoki siz uchun qimmatini eng past bo'lganini tanlang (faraz qilamiz-“A”). So'ngra javob varaqasining yana o'sha satridan “A” harfini topib, uning o'ng yoniga (“to'g'ri kelmaydi” so'zlari ostiga) belgi (“+”) qo'ying. Uchinchi javob varianti esa (“bizning misolda-S”) hech qayerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga ikkitadan “+” belgisini qo'yishingiz kerak bo'ladi: birinchisi-A, V yoki S variantlaridan birining “to'g'ri keladi” ustidagi katakchasiga, ikkinchisi shu variantlarning “to'g'ri kelmaydi” katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchala variant javoblar tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to'g'ri javob hayolga birinchi kelgan javobdir.

1. Men, qachonki:

A. Qilayotgan ishimi atrofdegilar qo'llab-quvvatlashsa;

V. Biror ishni o'zimga ma'qul, ko'nglimdagidek bajarsam;

S. Atrofdagi yaxshi do'stlarim borligini his etsam.

2. Bordi-yu kelajakda sportchi (futbolchi, volleybolchi) bo'lganimda edi:

A. O'yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi-trener bo'lishni istardim.

V. Mashhur o'yinchi bo'lishni istardim.

S. Komanda kapitani etib tayinlashimni istardim.

3. Haqiqiy pedagog quyidagi xususiyatga ega bo'lishi kerak:

A. O'quvchilarga alohida-alohida yondashib, har biri bilan qiziqsin.

V. O'quvchilarda predmetga nisbatan unday qiziqish uyg'otsinki, ular shu predmet doirasida ko'proq bilim olishga intilsinlar.

S. Sinf jamoasida shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo'rqmay o'z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsin.

4. Men:

A. O'zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman.

V. Jamoada ko'pchilik bilan mehnat qilishni yoqtiradigan kishilarni yaxshi ko'raman.

S. Topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman.

5. Agar mening do'stim:

A. Odamlarni tushunadigan, kerak bo'lganda qo'lidan kelgunicha yordam bera oladigan bo'lsa;

V. Har doim so'zining ustidan chiqa oladigan, sadoqatli bo'lsa;

S. Aqlli va har narsaga qiziqadigan inson bo'lsa qanoatlanish hosil qilardim

6. Eng yaqin do'st shunday kishiki, u:

A. Men bilan yaxshi munosabatlarda bo'lsa.

V. Eng yaqin paytda ham ishonchni oqlaydigan bo'lsa

S. Katta qat'iy tajribaga va ko'p yutuqlarga erishgan bo'lsa.

7. Men:

A. Ishimning o'ngidan kelmasligini;

V. O'rtoqlarim bilan munosabatimning bo'zilishini;

S. Atrofdagilarning meni tanqid qilishlarini;

juda istamagan bo'lardim.

8. Eng ayanchli ahvol shundaki, agar o'qituvchi:

A. Ba'zi o'qituvchilarni yoqtirmasligi, ularning ustidan qo'lishini va kinoyasini yashira olmasa.

V. Kollektivda raqobatchilik kayfiyatini yaratsa.

S. O'zi dars bergan fanni yaxshi bilmasa.

9. Bolaligimda eng yaxshi ko'rganim:

A. Ko'proq o'rtoqlarim bilan o'ynash edi.

V. Qum to'dasidan uychalar yasab, zavqlanish edi.

S. Biron narsa uchun meni maqtashar edi.

10. Quyida ta'rifi berilgan kishilarga o'xshashni juda-juda xoxlardim:

A. Hayotda katta lavozimlarda ishlagan kishi.

V. O'z ishiga chinakam berilgan kishi.

S. Do'stonligini va oqko'ngilligi bilan ajralib to'rgan kishi.

11. Menimcha, maktabning birinchi vazifasi:

A. Hayotdagi to'siqlar, muammolarni hal qilishni o'rganish.

V. O'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

S. Odamlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga yordam beradigan sifatlarni tarbiyalash.

12.Bo'sh vaqtim ko'proq bo'lganda, nazarimda, undan quyidagicha foydalangan bo'lar edim:

A. Do'slarim bilan suhbatlashirdim.

V. Ko'proq dam olib, hordiq chiqargan bo'lardim.

S. O'zim sevgan ishlar bilan, mustaqil o'qish, o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lardim.

13. Katta yutuqlarni qo'lga kiritishim mumkin, agar:

A. Chehrasi iliq bo'lgan kishilar bilan ishlasam.

V. Bajarayotgan ishim menga qiziqarli bo'lsa.

S. Qilgan ishim yaxshi rag'batlantirilishi mumkin bo'lsa.

14. Menga juda yoqadi, agar:

A. Odamlar meni qadrlashsa.

V. Biror ishni yaxshilab, oxiriga yetkazib bajarsam.

S. Vaqtimni do'stlar orasida qiziqarli o'tkazsam.

15. Agar men haqimda gazetada yozishga qaror qilishsa, men istardimki:

- A. Biror sohada erishgan yutuqlarimni maqtab yozishsin;
- V. Men bajargan ishlar haqida gapirilsin;
- S. Albatta men o'qitgan yoki ishlayotgan jamoa haqida bayon etilsin.

16. Men juda yaxshi o'qigan bo'lardim, agar o'qituvchi:

- A. Meni tushunsa va o'zlingimni nazarga olib, to'g'ri munosabat qila olsa.
- V. Predmetlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olsa.
- S. Dars mavzularini bahs-munozarali qilib yorita olsa.

17. Men uchun eng yomoni:

- A. G'ururimni poymol qilinishi.
- V. Zarur ishimni o'ngidan kelmasligi.
- S. Do'stlarimdan ajralib qolishim.

18. Menimcha, hayotda eng qadrli narsa:

- A. Muvaffaqiyat.
- V. O'zaro kelishuvda, hamkorlikda ishlash imkoni.
- S. Kundalki hayotda ijodkolik, hur fikrlik.

19. Men yoqtirmaydigan kishilar:

- A. O'zini boshqalardan past ko'ruvchilar.
- V. Badjahl, tez-tez janjal chiharuvchi kishilar.
- S. Har qanday yangilikka qarshi chiquvchi odamlar.

20. Men uchun quvonch bag'ishlaydi:

- A. Hamma uchun muhim bo'lgan ish bilan shug'ullanish.
- V. Yor-do'stlarimning ko'p bo'lishi.
- S. Odamlarni hayratda qoldirish, hammaga yoqish.

21. Menimcha, rahbar kishi quyidagi xususiyatga ega bo'lishi shart:

- A. Qo'l ostidagilarga juda yaqin bo'lishi, ularni tinglay bilishi.
- V. Obro'-e'tiborli, viqor-salobatli bo'lishi.
- S. O'ziga va boshqalarga talabchan bo'lishi.

22. Bo'sh vaqtimda havas bilan shunday kitoblarni o'qigan bo'lardimki, ular:

A. Do'st orttirish, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish sirlari haqida yozilgan bo'lsin.

V. Mashhur va ko'pqirrali insonlarni hayoti to'g'risida yozilgan bo'lsin.

S. Fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari to'g'risida yozilgan bo'lsin.

23. Musiqa sohasida qobiliyatim bo'lganida edi:

A. Dirijyor bo'lgan bo'lardim.

V. Bastakor bo'lardim.

S. Qo'shiqchi bo'lardim.

24. Istardimki:

A. Qiziqarli bir konkurs o'ylab topib, uning rejasini tuzsam.

V. Biror bir konkursda g'olib chiqsam.

S. O'zim konkurs tashkil etib, uni olib borsam.

25. Birinchi navbatda bilishim zarur:

A. Nima ish bajarishimni kerakligini.

V. Maqsadga erishish yo'llarini.

S. Maqsadga erishish uchun atrofdagi odamlardan qanday foydalanish kerakligini.

26. Inson unga intilishi kerakki:

A. Boshqalar undan xursand bo'lsinlar.

V. Unga buyurilgan ish, avvalo, vijdonan, chin ko'ngildan bajarilsin.

S. Qilgan ishi uchun u hech kimdan gap eshitmasin.

27. Bo'sh vaqtimda yaxshi dam olaman:

A. Do'stlarim bilan suhbatlashganda.

V. Qiziqarli filmlarni tomosha qilib, hordiq chiqarganda.

S. O'zim sevgan ish bilan mashg'ul bo'lgan.

Shaxs yo'nalganligi" (V.Smekal va M.Kucher) metodikasi bo'yicha tekshiriluvilarni aksariyati o'ziga yo'nalganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa shaxslarni mental xususiyatlar asosida tarbiyalanganligidan dalolat beradi. O'zbekni o'ziga xos mental xususiyatlarini shakllanishida milliy qadriyatlarni, urf-odatlar va milliy an'analarni ahamiyati cheksizdir.

2.2. Shaxsning qadriyatlar tizimiga munosabatini ijtimoiy psixologik o'rganish.

Kishining har xil istak va xoxishlarini aks ettiradigan savollar diqqatingizga havola etiladi. Har bir savolni yaxshilab o'qing va uning mazmunini o'zingizga qiyoslab ko'ring. Javob variantlari quyidagicha:

1. Men uchun hech qanday ahamiyati yo'q.
2. Unchalik muhim emas.
3. Ma'lum ahamiyatga ega.
4. Muhim, zarur.
5. Juda muhim, ehtiyojli zarur.

Bilingki, bu yerda yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar yo'q. Eng to'g'ri javob chin ko'ngildan, xolisona berilgan javobdir. Shu sababli barcha savollarga o'ylab, haqqoniy javob berasiz, degan umiddamiz.

Marhamat boshladik.

1. Biror ishiga atrofda gilarning yuqori baho berishi.
2. Ish joyim orqali har xil kamyob narsalarga ega bo'lish.
3. Barchaning hurmatiga sazovor bo'lish uchun o'qib, ilm olish.
4. Ish faoliyatimda ixtirochi bo'lish, yangilikka intilish.
5. Ko'p o'qish, ko'proq ma'lumotga ega bo'lish evaziga farovon hayot manbaiga erishish.
6. Oilam a'zolarining meni hurmat qilishlari.
7. Hamkasblarim bilan bajarilayotgan ish xususida tez-tez maslahat olib, suhbatlashib turish.
8. O'ragayotgan bilm sohamda biror bir yangilik yaratish.
9. Oilamning boy – badavlat hayot kechirishi.
10. Atrofdagilarning nazariga tushadigan darajada ijtimoiy-siyosiy voqyealardan xabrdor bo'lish.
11. Kasbiy mahoratimni doimiy ravishda oshirib borish.
12. Har xil odamlar bilan faol muloqotda bo'lish uchun yuqori ma'lumot darajasiga ega bo'lish.

13. Uy sharoitining ko'rishini doimo o'zgartirib, yangilab turish.
14. Jamoat ishlarida faol qatnashib, moddiy mukofotlar olish.
15. Havas va qiziqishlarim bilan atrofdagilarni hayratga solish.
16. Kasbiy faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.
17. Olgan bilimlarimni tinimsiz rivojlantirish, keng doiradagi ilmiy ma'lumotga ega bo'lish.
18. Oilada yetakchi bo'lish, muloqotchanlik muhitini yaratish.
19. Jamiyat hayotiga har xil yangiliklar kiritish, odamlar yangicha ong, yangicha fikrni shakllantirish.
20. Bo'sh vaqtlarimda daromad keltiradigan ishlar bilan shug'ullanish.
21. Obro'-e'tibor keltiradigan kasb sohasida ishlash.
22. Biror ishni boshlagach, unga chin qalbdan, berilib ishlash.
23. Biror sohada ta'lim olib, katta muvaffqiyatlarga erishish.
24. Oilamda har xil tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun boshqa oilalardagi voqyealarni sinchkovlik bilan o'rganish.
25. Ijtimoiy hayotning yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun odamlarni bir-biriga birlashtirish, hamjihatlikni yo'lga qo'yish.
26. Bo'sh vaqtimda ilgari mavjud bo'lmagan biror yangi narsani ixtiro etish.
27. Ish sharoitidan foydalanib, shaxsiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.
28. Ilmiy darajalar va unvonlarga ega bo'lib, obro'-e'tibor qozonish.
29. Boshqa kasblardan ijobiy farq qiladigan o'ziga xos kasb sohasida ishlash.
30. Chin yurakdan berilib o'qish, ilm olish.
31. Farzandlarimning har tomonlama rivojlanishi, tengdoshlaridan ustun bo'lishi.
32. Jamoat ishlari bilan shug'ullanib, tashkilotchilik qobiliyatimni rivojlantirish.
33. Qiziqishlarim doirasida o'rtoqlarim bilan birgalikda biror bir to'garakka, klubga a'zo bo'lish.
34. Kasbiy faoliyatimda har xil ish uslublarini sinab ko'rish.

35. O'qigan soham bo'yicha qo'shimcha moddiy ta'minlanish imkoniyati (masalan, har xil pullik mukofotlar, grantlar yoki tanqis mollar uchun alohida imtiyozlar).
36. Turmush o'rtog'imning obro'-e'tiborli oilada bo'lishligi.
37. Oddiy kishilardan farq qilish uchun tinmay o'qib, ilm olish.
38. Farzandlarimni ma'naviyati butun va to'g'riso'z insonlar qilib tarbiyalash.
39. Aniq maqsadlar bilan jamiyat hayotida faol ishtirok etish.
40. Bo'sh vaqtlardagi qiziqishlarimdan butun qobiliyatlarimni namoyon qilib, o'z ustimda ishlash.
41. Odamlar bilan tez-tez muloqotda bo'lish imkoniyati bo'lgan kasb sohasida ishlash.
42. Ilm-fanda yangi, qiziqarli kashfiyotlar qilish, ilmiy unvonlar olish.
43. Turmush o'rtog'imning oladigan maoshining yuqori bo'lishi.
44. Biror tashkilotga rahbarlik qilib, obro'-e'tiborli bo'lish.
45. Ko'pchilikning fikriga qarshi bo'lsa ham oilaviy hayotda o'z qarashlarimga tayanish.
46. Jamoat ishida faol ishtirok etib, ma'naviy ozuqa olish.
47. Qiziqishlarim doirasidagi maqsadlarimga tezroq erishish.
48. Kasbiy vazifamni yuqori saviyada bajarish.
49. Turli ilmiy muammolarni hal etishga qaratilgan anjumanlarda faol qatnashish.
50. Oilani boshqarish, bola tarbiyalashning har xil usullarini o'ylab topish.
51. Jamiyatda o'z o'rnimni topib, badavlat yashash.
52. Havas va qiziqishlarim doirasida erishgan yutuqlarim bilan mag'rurlanib yurish.
53. Ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashimda o'zgalarning ta'siriga berilmaslik, o'z qarashlarimga ega bo'lish.
54. Bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlarim bilan butunlay berilib shug'ullanish.
55. Kasbiy faoliyatimda aniq maqsadlar sari intilib, tez orada ularga erishish.
56. O'qish, ta'lim olish jarayonida aqliy qobiliyatlarimni rivojlantirish

57. Oilam a'zolarining to'y-marakalarida, turli bayram va marosimlarda faol qatnashishi.
58. Jamiyatimiz taraqqiyotiga, uning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishiga yangi taklif va g'oyalarim bilan hissa qo'shish.
59. Shaxsiy qiziqishlarimni moddiy boylik keltiradigan faoliyatga qaratish.
60. Mening havas va qiziqishlarim o'zimga xos hislat va qobiliyatlarimni aks ettirishi.
61. Qaysi kasb egasi bo'lmayin, u mazmunli, odamlar uchun foydali, halol bo'lsin.
62. Ilmiy daraja va unvon olish uchun aniq reja asosida harakat qilish.
63. Ahil hayot kechirish uchun turmush o'rtog'imning fe'l-atvorini tushunish va unga moslashish.
64. Jamiyat hayotida faol qatnashish, tajriballi odamlar bilan hamkorlik qilish.
65. Bo'sh vaqtlarimda har qiziqarli, ijodiy ishlar bilan shug'ullanish.
66. Ish faoliyatimda o'zimning uslubimga ega bo'lish.
67. Ma'naviy dunyomni boyitish uchun ilm bilan shug'ullanish.
68. Oilaviy hayotimni obdon rejalashtirish.
69. Jamoat ishlari jarayonida odamlarni o'z fikrlarimga iqror etishni, ishontira olishni o'rganish.
70. Bo'sh vaqtlarda do'stlar bilan hamkorlikda qiziqqan mashg'ulotlarim bilan band bo'lish.
71. O'qish va ta'lim olishda boshqa kishilar bilmagan, "tesha tegmagan" bilimlarni egallash.
72. Oilaga nisbatan halol va sadoqatli bo'lish.
73. Ijtimoiy va tashkilotchilik faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.
74. Havas va qiziqishlarimning doimiy ravishda ko'payib, rivojlanib turishi.
75. Farzandlarimda mustaqil dunyoqarash, o'zlariga xos fe'l-atvorning mavjud bo'lishi.
76. Jamiyat hayoti uchun foydali inson bo'lish.

77. Bo'sh vaqtlarimdagi mashg'ulotlarimni obdon o'ylab, aniq rejalashtirish va muvafaqqiyatlarga erishish.

78. Jamoatchilik orasida o'zimga xos mavqyega, o'z fe'l-atvorimga ega bo'lish.

79. Bo'sh vaqtimning ko'proq qismini yoqtirgan mashg'ulotlarim bilan o'tkazish.

80. Yaqin-atrofdagi hech kim shug'ullanmagan o'ziga xos va noyob mashg'ulotlar bilan band bo'lish.

JAVOB VARAQASI

Familiya _____ Ism _____

1					1.	Hech qanday ahamiyati yo'q			
2	3				2.	Unchalik muhim emas			
4	5	6			3.	Ma'lum ahamiyatga ega			
7	8	9	10		4.	Muhim, zarur			
11	12	13	14	15	5.	Juda muhim, ehtiyojli zarur			
16	17	18	19	20	21				
22	23	24	25	26	27	28			
29	30	31	32	33	34	35	36		
1	37	38	39	40	41	42	43	44	
	2	45	46	47	48	49	50	51	52
		3	53	54	55	56	57	58	59
			4	60	61	62	63	64	65
				5	66	67	68	69	70
1-6					6	71	72	73	74
	2-7					7	75	76	77
		3-8					8	78	79
			4-9					9	80
				5-10					10

4. QADRIYATLAR YO'NALISHLARI SAVOLNOMASI

Ma'lumki, ko'pgina mutaxassislar shaxs yo'nalganligini tashxis etishda mezon sifatida muayyan hayotiy maqsadlarni, qadriyatlarini asos qilib oladilar. Sababi, qadriyatlar yo'nalishlari tizimi shaxs yo'nalganligining asosiy mazmunini belgilaydi va uning atrof-olamga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatini, hayotiy faoliyat motivlarining mazmunini, shaxsning dunyoqarashini tashkil etadi. Qadriyatlarni ikki turga ajratish mumkin – 1) maqsadli qadriyatlar va 2) vositali qadriyatlar.

Muayyan hayotiy maqsadlar sari yo'nalgan qadriyatlarga maqsadli qadriyatlar deb ataladi. Boshqa so'z bilan aytganda, har bir shaxs o'ziga xos umumhayotiy g'oyalarga, o'zining yetakchi hayotiy maqsadlariga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, odamlar bilan aloqada bo'lish ba'zi kishilar hayotining asosiy mazmunini, maqsadini tashkil etadi, bunday kishilar ko'pincha, hayotning barcha sohalarida shaxslararo muamalarda bo'lish imkoniyatini juda qadrlaydilar. Binobarin, bu-maqsadli qadriyatlardan hisoblanadi. Shunindek, biror bir kasb-korga yoki bilim sohasiga chin yurakdan mehr qo'yib, mehnat qilish va tinimsiz ilm olib rivojlanishni hayotning mazmuni deb bilish va shu kabilar ham ana shunday maqsadli qadriyatlarga kiradi.

Vositali qadriyatlar shaxsning u yoki bu xulq – atvorini, hatti-harakatlarni tanlanishida aks etadi. Ya'ni vositali qadriyatlar (fe'l-atvor namunalari) kishining maqsadli qadriyatlariga, umumhayotiy g'oyalari erishish uslubini ifoda etadi.

Qadriyatlar to'g'risidagi mazkur nazariy qarash dastlab M.Rokich tomonidan ilgari surilgan bo'lib, keyinchalik barcha mutaxassislar tomonidan to'la qo'llab-quvvatlangan. Jumladan, Rossiyada I.G.Senin (1991) tomonidan ishlab chiqilgan va 200 yilda Respublika tashxis Markazida modifikasiya qilinib, o'zbek milliy muhitiga moslatirilgan qadriyatlar yo'nalishlari

savolnomasining² asosiy g'oyasi ham ushbu nazarga tayanadi va asosiy e'tibor bilan maqsadli qadriyatlari tashxis etishga qaratilgan.

Metodika chop etilgandan so'ng ko'plab empirik ma'lumotlar olinib, yuqori sinf o'quvchilarining kasbiy yo'nalganligini aniqlash muvaffaqiyat bilan ilatildi. Olingan ma'lumotlar, to'plangan tajriba shundan dalolat beradiki, metodika o'quvchining ruhiy dunyosini chuqur tahlil etishga qaratilgan. O'z-o'zini baholash, o'zini tahlil etish tajribasiga ega bo'lmagan ba'zi bir o'quvchilar metodika savollariga tushunmay yoki yengil tushunib, yuzaki javob berish hollari ham uchraydi. Shu sababli, tajribani o'tkazuvchi mutaxassis, avval metodikaning o'ziga xos tomonlarini did bilan o'rganishi kerak. Ikkinchidan, to'g'ri va to'liq tushuntira olishi, o'quvchilarning diqqatini o'ziga qarata olishi juda zarur va uchinchidan, har bir o'quvchining hatti-harakatlarini tajriba davomida kuzatib borishi, savolni tushunmay, uning ma'nosini to'lqiq anglay olmay turgan o'quvchilarga ko'maklashishi, dalda berib, diqqat bilan ilashga da'vat etib turishi kerak. Har qanday savolnoma metodikalardek ushbu metodika ham o'quvchining tetiklik bilan, ogohona, har bir savolga haqqoniy, o'ziga nisbatan tanqidiy ruhda javob berilishiga juda sezgirdir.

Tavsiya etilayotgan savolnoma tarkibiga quyida keltirilgan 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarga doir savollar kiritilgan.

1. Oliy nufuzga ega bo'lish, ya'ni muayyan ijtimoiy talablarga rioya qilish yo'li bilan jamoatchilik nazarida bo'lishga intilish, ijtimoiy talablarga rioya qilgan holda jamoatchilik yoqlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan faoliyatga intilish, o'z mavqyeini tobora baland ko'taradigan faoliyat turini izlash va bajarish payida bo'lish.
2. **Yuqori moddiy ta'minlanganlik**, ya'ni farovon hayot omillariga tiriklikning asosiy mazmuni sifatida munosabatda bo'lish.
3. **Ijodkorlik**, ya'ni o'z ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, tevarakdagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga intilish.

² Кодиров К.Б. Қадриятлар йўналишлари саволномаси (ҚайС). Амалий психологлар учун методик қўлланма. Низомий номли ТДПУ. Токент. 2000 йил.

4. **Faol ijtimoiy munosabatlar**, ya'ni ijtimoiy hamkorlik jarayonida iliq hissiy munosabatlarni o'rnatiga intilish, odamlar bilan ishlashni, hamkorlik qilishni yoqtirish hislati.
5. **O'z ustida ishlash**, ya'ni o'z shaxsiy hislatlarini anglab, doimiy ravishda o'z qobiliyatlarini va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga erishish.
6. **Yutuqlarga yo'nalganlik**, ya'ni o'z oldiga muayyan hayotiy maqsadlarni qo'yish va albatta ularga erishishga hayotning asosiy omili sifatida yondashish hislati.
7. **Ma'naviy qoniqish**, ya'ni ma'naviy fazilatlar va ehtiyojlarni yoki har xil ijtimoiy talablar, rasm-rusumlardan ustun qo'yish xususiyati.
8. O'zlikni saqlash, ya'ni o'z fikr va qarashlarini boshqa har qanday qarashlardan ajrata olish, ba'zan ustun qo'yish, o'zining betakrorligi va o'ziga xosligini, mustaqilligini muhofaza etish.

Shu bilan birga, insonning turli hayotiy sohalarda faoliyat ko'rsatib, ularda har xil ijtimoiy vazifalarni bajarishi nazarga olinganda, quyidagi 5 turdagi vositali qadriyatlar turkumini tashkil etadigan hayotiy sohalarni farq qilish mumkin:

- 1) kasb-hunar olami;
- 2) o'quv-tarbiya sohasi;
- 3) oilaviy hayot;
- 4) ijtimoiy hayot;
- 5) qiziqishlar olami;

Har bir inson ushbu hayotiy sohalarni u yoki bu tarzda tanlar ekan, bu tanlovda maqsadli qadriyatlar ham ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ya'ni muayyan hayotiy soha shaxsning qadriyatlariga qanchalik muvofiq kelsa, shaxs uchun shunchalik katta ahaiyatga ega bo'ladi. Masalan, oilaga bo'lgan hurmat, sadoqat, ishonch, oilaning moddiy ta'minoti yoki manaviy yetukligi uchun javobgarlik kabi hislar aks uchun oilaviy hayotning naqadar ahmiyatga ega ekanligini ko'rsatadi va hk.

Shunday qilib ushbu metodika bir tomondan, turli hayotiy sohalarda o'z aksini topgan muayyan maqsadli qadriyatlarning ustivorligini aniqlasa, ikkini tomondan shaxsning yo'nalish va aqidalariga bog'liq bo'lgan u yoki bu hayotiy sohaning shaxs uchun ahamiyatini o'lchashga yordam beradi.

Qadriyatlar yo'nalilar savolnomasining tarjima etilgani, milliy muhitga moslashtirilgani, uning ishonchlilik darajasini tahlil etib, o'zbek psixologlariga taqdim etilgani kasbga yo'naltirish ishlarida to'plangan chet eldagi ilg'or tajribalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, Respublikamiz ta'lim tizimida bo'layotgan inqilobiy o'zgarilarga ijobiy hissa bo'lib qo'shildi, degan umiddamiz. Metodikaning shaxs yo'nalganligi to'g'risida ancha mukammal, keng qamrovli ma'lumot berishini nazarga olib, uni maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim psixologlariga tavsiya etish mumkin.

Metodikaning tuzilishi va uni o'tkazish jarayoni

Ushbu metodika (3-ilova) jami 80 ta savoldan iborat bo'lib, savollar³, bir tomondan, 8 ta qadriyat yo'nalishlaridan biriga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu savollar 5 ta hayotiy sohaga ham taalluqli qilib tuzilgan. Aniqroq qilib aytilsa, bunda hayotiy sohaning har biri sakkiz juft (16 ta)dan savol mavjud ($16 \times 5 = 80$) bo'lib, ayni paytda bu savollar sakkiz yo'nalishdagi maqsadli qadriyat yo'nalishi besh xil hayotiy sohaga qaratilgan besh juft (10 ta) savol orqali aniqlanadi ($10 \times 8 = 80$).

Javob varaqasi (4-ilova) paralleogram shaklini eslatadigan 8×10 hajmli jadval (8 ta satr va 10 ta ustun) dan iborat bo'lib, savollar unday tartibda joylatirilganki, javob varaqasining har bir satri bittadan maqsadli qadriyat yo'nalishini aks ettiradi. Quyida ushbu satrlarning qaysi qadriyat yo'nalishlariga tegishli ekanligi ko'rsatilgan.

³ Бу ерда ва ундан кейин “савол” деганда сўроқ мазмунидаги эмас, балки кишининг ҳар хил истак ва майллари, турли фикр ва тасдиқларни ифода этувчи хабар-дарак жумлалар назарда тутилади. Яъни методиканинг йўриқномасига биноан синалувчи ушбу гапларни ўқийди ва ўзи учун муҳим даражасини 5 баллик баҳолаш тизими бўйича жавоб varaқасида баҳолайди.

Satr raqami	Qadriyat yo'nalishlari
1	Oliy nufuzga ega bo'lish
2	Yuqori moddiy ta'minlanganlik
3	Ijodkorlik
4	Faol ijtimoiy munosabatlar
5	O'z ustida ishlash
6	Yutuqlargayo'nalganlik
7	Ma'naviy qoniqish
8	O'zlikni saqlash

Shuningdek, jadvalning dastlabki 5 ta (1-5) va keyingi 5 ta ustunlari (6-10) bir-birini takrorlagan holda beta hayotiy sohani o'z ichiga oladi. Har bir hayotiy sohaga taaluqli ustunlarni quyidagi javdaldan aniqlab olish mumkin:

Hayotiy sohalar	Ustunlar
kasb-hunar olami;	1,6
o'quv-tarbiya sohasi;	2,7
oilaviy hayot;	3,8
ijtimoiy hayot;	4,9
qiziqishlar olami;	5,10

Ushbu metodikani tadqiqot guruhlarida o'tkazish uchun tajribadan o'tuvchilarga bittadan javob varqasi va savolnoma tarqatiladi va bajarilishi kerak bo'lgan vazifa tushuntiriladi. Metodika yo'riqnomasi savolnomada keltirilgan bo'lib, unga binoan sinaluvchi savolni o'qiydi va unda yoritilgan

fikrning o'zi uchun muhimlik darajasini 5 ballik tizim bo'yicha baholaydi va javob varaqasining tegishli katakchalarida qayd etib boradi.

Javoblarni "pastga engashgan" satrlar bo'ylab emas, balki odatdagidek gorizontal satrlar bo'ylab, ya'ni katakchalarning tartib raqamlariga rioya qilgan holda qayd etish lozim bo'ladi (4-ilovaga q.). Demak, savolnomada savollar shunday izchillik asosida joylashtirilganki, biror joyda mazmunan bir-biriga yaqin savollar yonma-yon tushib qolmaydi. Bu esa test mazmunining yoki tashxis yo'nalishining sinaluvchi uchun oydinlashib qolishining oldini oladi.

Demak, yuqorida qayd etilganidek tajriba o'tkazuvchi har bir sinaluvchining nima ish bajarishi lozimligini to'liq tushuntira olishi va uzluksiz nazorat qilishi kerak. Sinaluvchi barcha savollarga javob berib bo'lgach javob varaqasi va savolnomani tadqiqotchiga topshiradi.

Natijalarni qayta ishlash

Javob varaqalarini qayta ishlashda tadqiqotchi quyidagi tartibga amal qiladi. Dastlab, birinchi "pastga engashgan" satrdagi (ya'ni 1,3,6,10,15,21,28,36,44,52 kataklardagi) raqamlarni jamg'arib, jadvalning o'ng tomonidagi, ya'ni oxiridagi 1-nomerli katakchaga yozib qo'yadi. Xuddi shu amal ikkinchi satr uchun ham bajariladi, ya'ni satr yig'indisi o'ng tomondagi 2-nomerli katakchaga yozib qo'yiladi va hokazo. 8 ta "pastga engashgan" satrdagi ko'rsatgichlar yuqorida bayon qilinganidek mos ravida 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarining saviyasini aks ettiradi.

Maqsadli qadriyatlar bo'yicha olingan natijalarning miqdoriy ko'rsatgichlari nazariy jihatdan olinganda 10 dan 50 gacha oraliqda o'zgarib turishi mumkin. Biroq bir sinaluvchining maqsadli qadriyatlar bo'yicha ko'rsatgichlarining eng kichigi 15 va yuqorisi 32 ga teng bo'lsa, boshqa bir sinaluvchining bu ko'rsatgichlari 29-45 oralig'ida bo'lishi mumkin. Ya'ni olingan yig'indilarning balland-pastligi faqat shu sinaluvchining subyektiv o'zini o'zi baholashiga bog'liq bo'lib, ularni boshqa sinaluvchilarning maqsadli qadriyatlari bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Sinaluvchi qaysi qadriyat bo'yicha eng yuqori ball to'plagan bo'lsa, mazkur qadriyat yo'nalishi sinaluvchi shaxsida ustunlik qilishidan dalolat beradi va aksincha.

Besh turdagi hayotiy sohalarning shaxsdagi o'rnini aniqlash uchun dastlab har bir ustundagi ma'lumotlar alohida-alohida jamg'ariladi. So'ngra javob varaqasida ko'rsatilgan tartibda 1- va 6-, 2- va 7-, 3- va 8-, 4- va 9- hamda 5- va 10 – ustun ma'lumotlarining yig'indi qiymatlari olinib, tegili katakchalarga yozib chiqiladi (6-ilovaga q.).

Mazkur 5 ko'rsatgich mos ravida shaxsning besh hayotiy sohada tutgan o'rnini ifoda etadi.

Hayotiy sohalar bo'yicha olingan ko'rsatgichlar 16 dan 80 gacha oraliqda bo'lishi mumkin. Amalda esa yuqoridagi maqsadli qadriyatlarga xos bo'lgan barcha qonuniyatlar hayotiy sohalar ko'rsatgichlariga ham tegishlidir. Demak, sinaluvchining qaysi hayotiy sohaga yaqinligini uning hayotiy sohalar bo'yicha tanlagan ballarining balland-pastligiga qarab aniqlash mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bu metodikada ham javob varaqasining tuzilishi, metodika beradigan mazmunga bevosita aloqador. Ya'ni javob varaqasining tuzilishi, javob berish tartibi uni qayta ishlab mazmunli ko'rsatgichlar olishga to'liq bo'ysundirilgan. Shu sababli, ushbu javob varaqasining aqli o'ziga xos ko'rinishga ega. Shuning uchun ham metodikadan foydalanib, muhim va asosli ma'lumotlar olish istagida bo'lgan tadqiqotchi-psixologlar, albatta, birinchi navbatda, javob varaqasini bosmaxona sharoitida ayni o'zidek qilib ko'p nusxada chop ettirishlari yoki ksereks uskunasida metodik qo'llanmaga ilova qilingan nus'halaridan ko'chirma olishlari kerak bo'ladi.

Olingan natijalarning talqini

I. MAQSADLI QADRIYATLAR BO'YICHA

Oliy nufuzga ega bo'lish. Ushbu ko'rsatgichlardan yuqori ballga ega bo'lgan kishi hurmat-e'tibor qozonishga, boshqalarda o'ziga nisbatan yaxshi tasavvur paydo qilish ilinjida bo'ladilar. Ayniqsa, o'zi hurmat qilgan va eng ko'p ahamiyat bergan shaxslar oldida "o'yalib qolmaslik" uchun o'z hatti-harakatlarida, qarashlarida ziyraklik, ehtiyotkorlik, yuqori toifadagi kishilarga bog'liqlik kabi alomatlarini namoyon qiladi. Ko'pincha, bu yo'nalish bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan sinaluvchilar boshqalarning ular haqidagi shaxsiy fikrlarini bilishga juda qiziqadilar. Chunki bunday kishilar o'z hatti-harakatlarining jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan manfaatdor bo'ladilar.

Yuqoridagi moddiy ta'minlanganlik. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori ball egalari – asosan, moddiy ahvollarning mumkin qadar ko'tarishga intilgan kishilar. Bunday kishilar ko'pincha, moddiy farovonlikni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar. To'kin-sochin hayot ko'p hollarda bu toifadagi odamlarda o'zlariga yuqori baho berish, boshqa (ayniqsa, kamtarin hayot kechiradigan) kishilarni nazar-pisand qilmaslik kabi salbiy hislatlarni rivojlantiradi.

Ijodkorlik. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan shaxslar o'z ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga, hayotning barcha sohalarida har xil o'zgarishlar, kiritishga intiladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Bu qadriyat yo'nalishi bo'yicha yuqori ko'rsatgich kishining boshqalar bilan o'zaro iliq munosabatlarni o'rnatishga doir intilishlarini aks ettiradi. Odatda bunday kishilar insonlararo munosabatlarning barcha ko'rinishlarini qadrlaydilar, ko'pincha, boshqalar bilan hamkorlik qilish imkoiniyatini hayotda eng qimmatli deb biladilar.

O'z ustida ishlash. Bu yo'nalishdan yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z xarakterlarining xususiyatlari, qobiliyatlari va boshqa shaxsiy

fazilatlarini haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadilar. Bunday kishilar odatda o'zlarini har tomonlama rivojlantirishga, barcha fazilatlarini kamol toptirishga intilib, inson cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligiga ishonadilar va ularni to'liq ro'yobga chiqarishga erishishni hayotning mazmuni deb biladilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan kishilar o'zlarining turli hayotiy davrlarida aniq va sezilarli natijalarga, muayyan yutuqlarga erishishdan manfaatdor bo'ladilar. Bunday kishilar odatda o'z hayot yo'nalilarini obdon rejalashtirib, uning har bir bosqichida o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'yadilar va bu maqsadlarga erishish yo'lida qat'iy harakat qiladilar. Bundan tashqari, bunday kishilar ko'plab hayotiy yutuqlari tufayli, ko'pincha, mag'rur bo'lib o'zlariga keragidan yuqori baho berishga moyil bo'ladilar.

Ma'naviy qoniqish. Bunday kishilar, odatda, o'zlarini ruhiy-ma'naviy jihatdan qoniqtiradiga hayotiy sohalarni tanlashga intiladilar. Ular ko'pincha, o'zlariga qiziq bo'lgan, ma'naviy oзуqa, ichki qoniqish baxsh etadigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishini juda zarur deb biladilar.

O'zlikni saqlash. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori ball odamning boshqalardan mustaqil bo'lishga doir intilishlarini ifoda etadi. Bunday kishilar odatda hayotda eng muhim narsa deb, o'z shaxsining betakrorligini va o'ziga xosligini, o'ziga xos hayot tarziga, dunyoqarashga ega bo'lishni tushunadilar. Atrofdagilarning ta'siriga kamroq berilib, mustaqil fikrlariga binoan ish yuritishga moyil bo'ladilar, o'ziga xos hayot tarziga ega bo'ladilar.

II. HAYOTIY SOHALAR BO'YICHA

Kasbiy faoliyat. Bu ko'rsatgichdan yuqori ballga ega bo'lgan kishi o'z kasbiy faoliyat sohasiga katta ahamiya beradi. Bunday kishilar ko'p vaqtini o'z ishlariga sarflaydilar, ishlab chiqarishdagi barcha muammolarni hal etiga tezda kirishib ketadilar. Ular kasbiy faoliyatni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar.

O'quv ta'lim sohasi. Bu ko'rsatgichdan yuqori ballga ega bo'lgan kishi o'qimishli bo'lishga, o'z dunyoqarashini kengaytirishga intiluvchan bo'ladi.

Bunday kishilar o'qishni, yangi-yangi bilimlarni egallashni, hayotdan orqada qolmaslikni eng muhim narsa deb hisoblaydilar.

Oilaviy hayot. Bu ko'rsatgichdan yuqori ballga ega bo'lgan kishi o'z oilasi bilan bog'liq bo'lgan barcha voqeyeliklarga katta ahamiyat berishi bilan ajralib turadi. Bunday kishilar oilaviy muammolarni hal etish yo'lida ko'p kuch va vaqt sarflashga moyil bo'ladilar, baxtli oila qurishni eng muhim narsa deb biladilar.

Ijtimoiy hayot sohasi. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan kishilar jamiyat hayotiga doir muammolarga katta ahamiyat berishlari bilan ajralib turadilar. Odatda, bunday kishilar ijtimoiy-siyosiy hayotga tezda kirishib ketadilar va o'zlarining ijtimoiy-siyosiy haralarini inosiyat uchun juda muhim deb hisoblaydilar.

Qiziqishlar olami. Bu ko'rsatgich bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan kishilar hayotida ularning shaxsiy qiziqishlari asosiy o'rinni egallaydi. Odatda bunday kishilar bo'sh vaqtlarini to'laligicha muayyan qiziqish sohalari uchun sarflaydilar va bo'sh vaqtlarda biror bir soha bilan mashg'ul bo'lishni havas qilmagan kishilar hayotini zerikarli, ko'p jihatdan mazmunsiz deb hisoblaydilar.

XULOSA.

O'z tarixini bilmagan, o'z milliy qadriyatlarini bilmagan insonni kelajagi ham bo'lmaydi. Ma'naviyat yo'q joyda taraqqiyot ham, baxt-saodat ham kelajak ham bo'lmaydi. Ma'lumki, har bir jamiyatda kelajak taqdiri navqiron avlodlar qo'lida bo'lganidek, har bir xalqning ma'naviy va madaniy kamolot darajasi, eng avvalo, yoshlar tarbiyasidagi milliy mental xususitlarida ko'rinadi. Istiqbolini o'ylagan har qanday ma'naviyati va madaniyati qanday shakllanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Istiqlool tufayli odamlarning o'z taqdirini o'zlari erkin belgilash imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Shu yo'nalishda odamlarning individual ravishda kamolotga, farovonlikka, to'kinlikka intilish xususiyatlari ham ravshan namoyon bo'la boshladi.

Ma'naviyati yuksak, odob-ahloqli, ma'rifatli, madaniyatli o'zini mental xususitlarni bilgan kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, birovlariga himmat-muruvvat ko'rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi. Yuksak madaniyat sohibi bo'lgan insonlar boshiga mushkul ish tushgan kishining mushkulini oson qiladi, dardiga malham bo'ladi, hojatini chiqaradi, yetim-yesirlarni parvarish qiladi. Ma'naviyatli, ma'rifatli kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usi, oriyat kabi mental xususiyatlar kuchli bo'ladi. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan kishilar o'z millati, elulusi manfaati sharafini himoya qilishni o'zi uchun shon-sharaf deb biladi. Vataniga xavf tug'ilsa, uning himoyasi yo'lida mol-dunyasini, jon-u jahonni ayamaydi, fidoiylik va qahramonlik namunalari ko'rsatadi.

Ma'naviy barkamol bo'lgan odamlar birovlar orqasidan ginaxonlik qilmaydi, gap tashimaydi, fisq-u fasad, bo'htonga nisbatan murosasiz bo'ladi, mahalliychilikka yo'l qo'ymaydi, guruhbozlikka, millat ajratishlarga qarshi astoydil kurashadi, milliy birdamlik, milliy hamkorlik va milliy hamjihatlik, o'zaro do'stlikni qaror toptirish va mustahkamlash yo'lida tinmay harakat qiladi.

O'zbekning mental xususiyatlari xalq hayotining butun borlig'ida namoyon bo'libgina qolmasdan, shuningdek, shu millatga mansub bo'lgan shaxslarning kundalik muomalasida, xatti-harakatlarida xam ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Chunki har bir inson bolasi ma'lum bir Vatan farzandi, shaxs sifatida ma'lum bir jamiyat mevasi. Bizning dunyoni bilishdagi turli-tuman tasavvur va tushunchalarimiz ham shu jamiyatning mental xususiyatlarini va etnik va muhitning bizga ko'rsatayotgan ta'siri ostida vujudga kelgan.

Milliy qadriyat, ta'bir joiz bo'lsa, millatning sifat belgisidir. Inson hayoti va faoliyatini qadriyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga dahldor barcha buyumlar, narsa va hodisalar qadriyat hisoblanadi. Aslida insonning o'zi ham, uning hayoti, xatti-harakatlari, yuksak oliyjanob fazilatlari xam ma'lum ma'noda qadriyatdir. "Qadriyat" so'zi qadim zamonlarda paydo bo'lgan bo'lib, u barcha xalqlar ma'naviy hayotining asosini tashkil etadi. "Qadriyat" atamasi asli arabcha "Qadr" so'zidan olingan bo'lib, qimmatli, foydali ma'nolarini anglatadi. O'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarini shakllantirishda qadriyatlar mohiyat va mazmunga ko'ra umuminsoniy, milliy va diniy shaklda namoyon bo'lishi mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha xalqlar hayot tarzi asosida yaratilgan va umumbashariy xarakterga ega bo'lgan qadriyatlardir. O'zbekistonning demokratik jamiyat qurish harakatlari: erkinlik, tenglik, ijtimoiy haqiqat, ijtimoiy adolat, qonun ustivorligi singari umumbashariy tamoyillarga bo'lgan extiyojini yanada oshiradi.

Milliy qadriyatlarimiz orasida milliy an'analar alohida o'rin tutadi. Milliy an'analarimizning kuch-qudrati shundaki, u diniy ahloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog'lanib, jamoatchilik asosida odamlar xatti-harakatlarini baholab boradi. Adolatparvarlik, saxovatpeshalik, iymon, diyonat, nafs balosiga qarshi kurashish singari qadriyatlar, rivoyat, hikmatlar qadimiy Sharqda ilk bor ilohiy tarzda ilgari surilgan. Islom madaniyatining asoschilari, peshvolari Axmad

Yassaviy, At-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Baxouddin Nakshband va ularning yuzlab izdoshlari xalqimizning ajoyib qadriyatlarini rivojlantirib berganlar.

Olohdan oldin shohu-gadoning tengligi, saxiylik, halollik, insof va adolat, iymon va diyonat kabi tushunchalarga muqaddaslik mazmunini berganlar ham shu buyuk insonlardir.

Milliy qadriyatlarning ahamiyatli tomoni shundaki, u odamlarni yuksak maqsadlarga da'vat etadi, unga nisbatan ishonch uyg'otadi, har bir fuqaroning oila, jamiyat va mamlakat oldidagi o'zlarining mas'uliyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Bitiruv malakaviy ishimizga yakun yasharkanmiz, o'zbek mentalitetining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlar, an'analar va udumlarning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. "Sharq", 1999.
2. Karimov I.A. Donishmand Xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. T. 2000 y.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston XX asrga intilmoqda" - T. "O'zbekiston" 1999 yil.
4. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi" T. "Sharq" 1999 yil
5. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi Xalqni Xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin" T.O'zbekiston 1998 yil.
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" 2008y. Tosh. Ma'naviyat nash.
7. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasida" 2012y. Tosh.
8. Andreyeva G.M.Sosialnaya psixologiya:-Uchebnik.-2-ye izd. -M.:Izd-vo MGU,1988.- 432 b.
9. Baratov Sh.R. Sosialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovy sozdaniya psixologicheskoy slujby v O'zbekistane: avtoref. dis. dok. psihol. nauk. Toshkent 1998.-37 s.
- 10.Beruniy A. Tanlangan asarlar. II tom. Toshkent, 1965. - 125 bet
- 11.Isokova M.T. Milliy an'analar va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish. Fan nomzodi. diss. avtoref., -T., -1999.
- 12.Mamatov M.M. Etnopsixologiyadan ma'naviyat matni. ToshDU. "Universitet" nashriyoti, Toshkent. - 1999. — 54 b.
- 13.Muomala sirlari / Deyl Karnegi tizimi asosida tuzilgan maslaxatlar. To'zuvchilar: N.S.Safoyev,B.T.Gafforov.-T.:Navro'z, 1992.
- 14.Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy taxriri ostida 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimasini. - Toshkent.: O'kituvchi.1992 - 512 b.
- 15.Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. A.I.Shcherbakov taxriri ostida- T.: O'kituvchi, 1984 - 336 b.
- 16.Shoumarov G.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar, yechimlar. "Ma'rifat"ro'znomasi, 12 oktyabr, 1996 y. -B. 1-2.

- 17.Shoumarov G.B. Shoumarov Sh.B. Muxabbat va oila. -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-manbaa birlashmasi, 1994-120 b.
- 18.Shoumarov G.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar, yechimlar. "Maъrifat" ro'znomasi 16 oktyabr 1996 y -B. 2-3.
- 19.Shoumarov G.B. Barotov Sh.R. Respublika Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat muammolari. Resp. ilm.-amal. anj. ma'ruzalarining tezislari. Samarqand 1995 y 12-13 may -B. 78-80.
- 20.G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. T.: O'kituvchi. 1990183 b.
- 21.G'oziyev E. O'zbek Xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasida o'zbek oilasining etnopsixologik muammolari. // Resp. ilmiy - amaliy anj. ma'ro'z. kisk. bayoni. -Toshkent.: 1993y. -B.8-9.
- 22.Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya. M., 1987.
- 23.Arutyunyan Yu.V. Etnosotsiologiya. M. 1984.
- 24.Bromley Yu.V. Etnos i etnografiya. M. 1983 g.
- 25.Dashdamirov A.F. Nasiya i lichnost. Baku, 1988 g.
- 26.Stefanenko T.G. Etnopsixologiya. M. 1999 g.
- 27.Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruhiyat. T. 1992 y.
- 28.Mamatov M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari.T.1980 y.
- 29.Xudoyberdiyev I. Islom, shaxs va milliy psixologiya. T. 1994 y.
30. E.G'.G'oziyev. Umumiy psixologiya. 2010y.-Tosh.
- 31.E.G'.G'oziyev. Ontogenez psixologiya. 2010y.-Tosh.